

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Tehnologik ta'lism kafedras

FAN VA TEXNIKA TARIXI

fanidan

**O' QUV - USLUBIY
MAJMU A**

Bilim sohasi:	100 000	-Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	110 000	-Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5112100	-Texnologik ta'lism

Namangan - 2021

MUNDARIJA

1. Oquv materiallari:

1.1. Ma’ruza mashg’ulotlari.....	3
1.2. Amaliy mashg’ulot.....	77
2. Mustaqil ta’lim mashg’ulotlari.....	95
3. Glossariy.....	97
4. Ilovalar:	
4.1. Namunaviy fan dasturi.....	101
4.2. Ishchi o’quv dasturi.....	113
4.3. Tarqatma materiallar.....	143
4.4. Testlar.....	148
4.5. Baholash mezoni.....	176
4.6. Oraliq nazorati savollari.....	177
4.7. Umumiy savollar.....	192
4.8. Foydalaniman adabiyotlar.....	195

Fanning O'quv-uslubiy majmuasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rtalmasus ta'lif vazirining 2019-yil 4-oktyabrdagi 892-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan, № BD 5640100-2.03 raqam bilan ro'yxatga olingan namunaviy fandasturi asosida tuzilgan.

Tuzuvchilar: **SH.S.Xudayqulov** – NamDU, “Hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrasiga katta o'qituvchisi, PhD

Taqrizchi: **X.Akramov** - Namangan davlat universiteti, Texnologik ta'lif kafedrasiga dotsenti, f-m.f.n.

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi Namangan davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti Texnologik ta'lif kafedrasida muhokama qilingan hamda fakultet ilmiy kengashi tomonidan ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan (2021-yil “___” “avgustdaggi ___-sonli bayonnomasi”)

Kafedra mudiri: _____ **X.Akramov**

Fanning o'quv uslubiy majmuasi Namangan davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti ilmiy kengashi tomonidan ko'rib chiqilgan va foydalananishga tavsiya etilgan (2021-yil “___” “avgustdaggi ___-sonli bayonnomasi”)

Fakultet dekani: _____ **O'.Abdullayev**


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

"UMUMTEXNIKA FANLARI VA KASB TAHLIMI"
kafedrasи

«FAN VA TEHNIKA TARIXI»
fanidan

MA'RUZALAR MATNI



NAMANGAN - 2021

1. Mavzu. Kirish. Fan va texnika tarixi fanining maqsad va vazifalari.

Reja;

1. Fanni paydo bo`lish tarixi.

2. O`rta asrlarda fan rivojiga arab, Sharq va O`rta Osiyo olimlarini qo`shgan hissalari.

3. Fanlar tizimi katta guruxlarga bo`linishi.

4. Mustaqillik sharoiti O`zbekistonda fanning rivoji.

FAN — dunyo haqidagi bilimlar sistemasi, ijtimoiy ong shakllaridan biri. U yangi bilimlarni egallash bilan bo-liq, faoliyatni ham, bu faoliyatning mahsuli — olamning ilmiy manzarasi asosini tashkil etuvchi bilimlarni ham o`z ichiga oladi; inson bilimlarining ayrim sohalarini ifodalaydi. Fanning bevosita maqsadi o`zining o`rganish predmeti hisoblangan voqelikning qonunlarini kashf etish asosida shu voqelikning jarayon va hodisalarini ta`riflash, tushuntirish, oldindan aytib berishdir.

Fanning ilk kurtaklari kishilik jamiyatining paydo bo`lishi bilan bo-liq holda maydonga kelgan. Dastlabki bilimlar amaliy xarakterga ega bo`lgan. Tafakkur - sistemasining kurtaklari mifologiya sifatida qad. Sharq va Yunonistonda paydo bo`la boshlagan. Izoh-(tafakkur-bu inson aqliy faoliyatining yuksak shakli, ob`ektiv vokelikning ongida aks etish jarayoni).

Mifologiya fanga o`tish bo`sса-asida malum bosqich vazifani bajargan. Izoh (yun.- mifos, afsona, rivoyat, asotir. Qadimgi odamning borliq olam haqidagi ibridoiy tasavvurlari majmui bo`lib,koinotning yaratilishi, inson,o`simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo`lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar,ma`budalar va ilohlar To`g`risidagi e`tiqodiy qarashlarni o`z ichiga olgan).Rivojlanish davom etishi bilan mifologiya o`rninini naturfalsafa egalladi. Avestoda mifologiya va fan unsurlari ham o`z aksini topgan.

Izox-(naturfalsafa-ya`ni tabiatfalsafasi, tabiatni bir butun tizim sifatida, asosan, jonli mushohada negizida yoki tabiatshunoslikdan o`zlashtirilgan bilimlar orqali talqin etish va tushuntirish, uning umumiyl manzarasini tasvirlash borasidagi falsafiy urinishlar majmuasi. Mas.Yunon faylasuflaridan Fales, Anaksimandr, Anaksimen, appoloniyalik Diogen, Geraklik naturfalsafaning asoschilari bo`lganlar).Zenon, Demokrit, Aristotel va boshqa qadimgi zamon mutafakkirlari tabiat, jamiyat va tafakkurni goho birgalikda, goho ayrim ayrim ravishda bayon etishga o`rina boshladilar. Dunyoni bir butun, deb ifodalovchi tushunchalar, isbotlash usuli paydo bo`ldi.Dunyoni bir butun, deb ifodalovchi tushunchalar, isbotlash usuli paydo bo`ldi. Ellinizm davrida Yevklid, Arximed, Ptolemy tomonidan geometriya, mexanika, astronomiya sohasida dastlabki nazariy sistemalar yaratildi.

Izoh-(Ellinizm-bu Makedoniya, Yunoniston, O`rta dengizning sharqiy sohillari -arbiy Osiyo, Qora dengiz atrofidagi mamlakatlар tarixining Aleksandr istilosi mil.av.334-323y dan mil .av. 30 y.dan Misr Rim qo`shinlari tomonidan ish-ol etilgan paytgacha o`tgan davr.

Ellinizm atamasi ilmda daslab nemis olimi I.G.Droyzenning 1836-43 y.da chop etilgan 2 jildli «Ellinizm tarixi» asarida qo`llangan va ushbu atama orqali ellinlarning Sharq mamlakatlaridagi hukmronligiga va ular madaniyatining Sharq xalqlari madaniyati bilan uy-unlashib hosil qilgan Yangi madaniyat tushunilgan. Izox- (-arbiy Osiyo-Old Osiyo-Osiyo qit`asining -arbiy va Jan--arb qismida joylashgan hududlarning shartli nomi. -arbiy Osiyoga tabiiy jihatdan Kichik Osiyo, Arabiston,Sinay yarim orollari va ularga yondosh orol va hududlar-Kipr,Kavkaz bo`yni,SHarqiyl Tavr toqlari va Eron to-ligining kattaqismi, Mesopatamiya pasttekisligi hamda O`rta dengizning sharqiyl sohilidagi hududlari)

Dastlab fan rivoji bilan texnika taraqqiyoti o`rta sidagi yaqinlashuv XIV—XVIII asrlarda manufakturna ishlab chiqarish bilan bo`liq holda sodir bo`ldi. Bungacha moddiy ishlab chiqarish empirik tajribalar, hunarmandlik asosida shakllangan. Teologiya va sxolastika ta'siridagi tabiat haqidagi ilmiy nazariy bilimlar ham ishlab chiqarishga hech qanday salbiy ta'sir qilmasdan sekinlik bilan rivojlangan. Ilmiy va texnikaviy taraqqiyot inson faoliyatining 2 ta nisbatan mustaqil yo`nalishi sifatida yuksala borgan.

XVI asrda savdo-sotiq va yirik manufakturadagi tub o`zgarishlar bir qancha aniq vazifalarni nazariy va eksperimental hal qilishni talab qildi. Bu davrda fan Uy-onish davri g`oyalari ta'sirida sxolastika an'analarini parchalab, amaliyotga murojaat qildi. Kompas, porox va kitob nashr qilish ilmiy-texnikaviy faoliyatga asos solgan 3 ta yirik kashfiyot bo`ldi. Suv tegirmonlarining rivojlanayotgan manufakturna ishlab chiqarishida qo'llanilishi ba`zi mexanik jarayonlarni nazariy tadqiq etishni talab qildi. Natijada charx-palak -ildiragi, charxpalak harakati nazariyasi, qarshilik va ishqalanish ta'limotlari yaratildi. Fan bilan texnika yaqinlashuvining 2-bosqichi mashina ishlab chiqarishning XVIII asr oxiridan boshlab taraqqiy etishi bilan bo`liq bo`lib, bunda fan bilan texnika bir-birining jadal rivojlanishiga ta'sir ko`rsatdi. Bu davrda ishlab chiqarish faoliyatida nazariy masalalarni hayotga tatbiq qilishga da`vat etuvchi fanning maxsus bo`-inlari paydo bo`ldi: amaliy tadqiqotlar, ishlab chiqarish tadqiqotlari, amaliy konstruktiv ishlanmalar va h.k.

Fan texnika taraqqiyotining 3-bosqichi fan-texnika inqilobi bilan bo`liq. Uning ta'sirida texnika taraqqiyotiga qaratilgan ilmiy sohalar kengayadi. Texnik masalalarni hal qilishda biologlar, fiziologlar, psixologlar, mantiqshunoslar ishtirok etadi. Fan texnika taraqqiyoti shuningdek, ijtimoiy fanlar yo`nalishlari, iqtisod va ishlab chiqarishni tashkil qilish, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni ilmiy boshqarish, aniq ijtimoiy tadqiqotlar kabilarga bilvosita ta'sir qiladi. Fanning texnikaga nisbatan yetakchilik mavqeい yanada yorqin namoyon bo`ladi, fan texnikani uzlusiz inqiloblashtiruvchi kuchga aylanadi. O`z navbatida, texnika ham fan taraqqiyotiga ijobjiy ta'sir ko`rsatib, uning oldiga yangi talab va vazifalar qo`yadi. Hozirgi zamon fan-texnika inqilobining xarakterli xususiyati uning sanoat bilan birga ijtimoiy hayotning turli sohalari: qishloq xo`jaligi, transport, aloqa, tibbiyot, ta`lim, maishiy xizmat kabilarni qamrab olganligidadir.

O`rta asrlarda Fan rivojiga arab, Sharq va O`rta Osiyo olimlari ulkan hissa qo`shdilar. Ular qadimgi Fan yutuqlarini, ilmiy asarlarni saqlash, tarjima qilish va ularni tarqatish masalasiga katta e'tibor berdilar. Shuningdek, ular fanni yangi yutuqlar bilan boyitdilar, yangi kashfiyotlar qildilar. O`rta Osiyonning buyuk olimlari ilm-fanning eng yangi tarmoqlarini yaratdilar va yangi qonun-qoidalarni kashf etdilar.

Muhammad al-Xorazmiy tenglamalar haqidagi fan sifatida algebra va to`n-ich algoritmlarni kashf etdi. Ahmad Far-oniy astronomiyaga sistema tarzini berdi. Ahmad Marvaziy trigonometriyani boyitdi (IX-asr). Abu Nasr Forobiy falsafiy fikrni yuksaltirdi, muzikaning matematik nazariyasini yaratdi. Xamid Xujandiy kub tenglamalar nazariyasini chuqurlashtirdi (X-asr). Mahmud Qosh-oriy o`z davrining qomusi bo`lgan «Devonu lu-otit turkni yaratdi. Abu Rayxon Beruniy geodeziya, mineralogiya, farmakognoziyani yaratuvchilardan biri bo`ldi.

Abu Ali Ibn Sino meditsinaning ilmiy zaminini qo`ydi (XI-asr). Ulu-bek, -iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi sonlar nazariyasiga muhim hissa qo`shdilar va kuzatish astronomiyasini yuqori po-onaga ko`tardilar (XV-asr). Lekin Ulu-bek qora guruqlar tomonidan vahshiylarcha o`ldirildi, observatoriya hamda kutubxonalar vayron qilindi, ilm ahllari tarqatib yuborildi. Ulubekning ilmiy g`oyalari boshqa mamlakatlar (Mas., Turkiya, Hindiston)da qisman davom ettirildi. Yevropada Uygonish davri ilm-fanga ijobjiy ta'sir ko`rsatdi.

Kutubxona (Eng yirik kutubxona mil. av. 1300 yilda Misrning qadimiy poytaxti Fivning yaqinida bonyod etilgan. Tarixchilarining fikriga qaraganda, u fir'avn Ramses II ga qarashli bo`lgan. Bu kutubxonaning o`ziga xos fazilatlari ko`p. Uning peshtoqida Qalb da`vati (Qalb darmonxonasi») deb yozib qo`yilgan. Muhtasham eshikda xudo Tot va ma'buda Seshatnnng tasviri tushirilgan bo`lib, ularni «kitoblar-ning ulug xukmronlarn» deb atalgan. Kutubxonaning ichida yana ikki xudoning — Xu «So`z» hamda Sia “Bilim” xudolarining tasviri bor edi) XII asrning boshlaridan Xorazmiy, Ibn Sino, Al-Kindiy, Ibn Rushd va boshqalarning asarlari latin tiliga tarjima qilina boshladi. Leonardo da Vinchi, R. Bekon, T. Gobbs, N. Kopernik, J. Bruno, G. Galiley, I. Kepler, R. Dekart kabi olimlar tabiat haqidagi bilimlarni rivojlantirdilar. Astrologiya o`rnini astronomiya, alkemyo o`rnini Kimyo egalladi. O`rta asrlardan boshlab Yevropada universitetlar Fanni rivojlantirishda muhim rol o`ynadi. O`rta Osiyoda vujudga kelgan madrasalarda asosan diniy bilimlar o`qitilgan bo`lsa-da, ba`zan il-or mudarrislar tomonidan dunyoviy Fanlar, chunonchi, matematika, astronomiya, geografiya, tibbiyot elementlarid xam ta`lim berilgan.

Akademiya tarzidagi muassasa va jamiyatlar Sharq, mamlakatlarida VIII-IX asrlarda tarkib topa boshlagan. Yevropada bunday jamiyatlar XV-XVI- asrlardan boshlab tashkil qilingan Yangi davrda Fanning ijtimoiy roli yanada oshdi. U madaniyatning muhim tarmo-i va texnikaning nazariy asosiga aylana boshladi. XVI-XVII-asrlarda klassik fizikaning poydevori qurildi. Fanning nazariya darajasiga ko`tarilganligi fikrnnng (tafakkur) induktiv va deduktiv rivojlansh ga yo`l ochib berdi. Izox (Induktiv-uy-onish, deduktiv- mantiq, mantiqan).

Mavjud ilmiy faktlar I. Nyuton tomonidan dinamikaning asosiy qonuni sifatida ta`riflandi. Bu umumlashtirilgan qonundan XVII-XIX asrlarda xususiy qonuniyatlar kashf etildi. Lagranj, Eyler ,Gauss va boshqalar ijodi mexanikani moddiy nuqtalar sistemasi tarzida shakllanishga olib keldi. Olamning mexanistik surati ilmiy tus ola boshlashi bilan yangi ilmiy dalillar olamga dialektik qarashni taqozo qildi.

I Kant, P. Laplas va b. tabiat tu-risidagi dialektik g`oyalarni bayon qildilar. M. V. Lomonosov moddaning saqlanish qonunini kashf etdi. XIX-asrda tabiat qonunlaridan biri — energiyaning saqlanishi va shaklining o`zgarishi haqidagi qonun kashf etilishi (R.Mayer, J. Joule, G. Gelmgolts) boshqa va kimyoning barcha sohalarini umumiylashtirishga sabab bo`ldi. Hujayra nazariyasining bonyodga kelishi (T. Shvann, M. Shleyden) barcha jonli organizmlarning strukturasi bir xil ekanligini kursatdi. CH. Darvinnning biologiyadagi evolyutson ta`limoti jonli tabiiyotga rivojlanish g`oyasini olib kirdi.

Geometriya sohasida revolyutsion ta`limot yaratildi: asrlar davomida hukm surib kelayotgan Yevklid geomotriyasi yagona emasligi, balki noevklid geometriyalar ham borligi N. Lobachevskiy tomonidan bayon etildi va u keyinchalik isbotlandi. D. I. Mendeleeening davriy sistemasi har xil kimyoviy elementlar orasidagi ichki dialektik bo`lanishni ifodaladi.

Matematika va fizikada XX-asrda hal katta yutuqlar qo`lga kiritildi, texnika Fanlarida radiotexnika, elektronika kabi sohalar paydo bo`ldi. Fan va texnikaning yanada rivojlanishiga ta`siri borgan sari ortib borayotgan kibernetika vujudga keldi. Fizika va kimyo Fanlaridagi muvaffaqiyatlar xujayralardagi biologik jarayonlarni yanada chuqurroq, o`rganishga imkon berdi, bu hol qishloq xo`jaligi va tibbiyot fanlarining rivojlanishiga olib keldi. Fanning ishlab chiqish bilan yaqin hamkorligi yuz berib uning ijtimoiy hayot bilan aloqlari mustahkam,, ana boshladi. Hozirgi Fanlar fan-texnika inqilobning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Fanlar tizimi umuman qo`yidagi katta guruxlarga bo`linadi:
1.Tabiyy fanlar,

- 2.Gumanitar fanlar,
- 3.Texnika fanlar,
- 4.Ijtimoiy fanlar.

Bu guruhlarning har qaysisidan juda ko`p mustaqil fan sohalari ajraladi. Mustaqil fanlar bir-biriga bo`liq sohalarda ilmiy izlanishning yirik va istiqbolli muammolarini yechishga To`g`ri keladi, bu hol hozirgi paytda fanlararo va kompleks tadqiqotlarni keng avj oldirishni taqozo etadi. Tabiatni muxofaza qilish muammosi bunga yaqqol misol bo`la oladi. Bu muammo texnika fanlari, yer tugrisidagi fanlar, biologiya,, matematik. tibbiyat, iqtisodiyot va boshqalar b-n qo`shilib ketgan. Bu xildagi ilmiy va ilmiy-texnik muammolarni xal qilish uchun xozirgi (fanlarda tadqiqotlarni dasturiy-maqsadli tashkil etish metodi kent qullaniladi. Ilmiy tadqiqotlarni

2

ga:

Fundamental va amaliy tadqiqotlarga ajratish qabul qilingan. Tabiat, jamiyat, tafakkurga xos qonunlarni bilib olish fundamental tadqiqotlarning, bu tadqiqotlar natijalarini bilim orttirish va ijtimoiy-amaliy muammolarni xal qilish uchun qo`llash amaliy tadqiqotarning vazifasidir. Fundamental tadqiqotlar, odatda, amaliy tadqiqotlardan oldinda boradi va ular uchun nazariy asos yaratadi. Fundamental va amaliy tadqiqotlar o`rtasidagi o`zaro bo-liklikni mustahkamlash, ilmiy yutuqlar natijalarini amaliyotga tezroq joriy etish — hozirgi davr Fani uchun muxim vazifalardan

biridir.

Xozirgi davrda fan jamiyat tarakkiyotink olga siljituvchi kuch va vosita bulib kolayotganligini kuzatish mumkin. Xalq va millat dunyoqarashini shakllantirish, ta`lim-tarbiyaviy, axloq. normalarini vujudga keltirish, ma`naviy barkamol ishunni tarbiyalashda fan aloxida o`rin tutmoqda.

Mustaqillik sharoiti O`zbekistonda fanning rivojiga katta ijobiy ta`sir ko`rsatdi. Avvalo, fanimiz strukturasi keskin uzgardi: ma`naviy Fanlar xisoblanuvchi tasavvuf ilmi tiklandi, xadis bilimlariga yul ochildi. Izox-(Tasavvuf-sufiylik-islomda insonni ruxiy va axloqiy jixatdan komillik sari yullovchi ta`limot.Tasavvuf suzining o`zagi va mazmuni xaqida, turlicha fikrlar mavjud. Ular ichida Ibn Xaldunning fikri xaqiqatga yaqinroq. U Muqaddima asarida Tasavvuf-suvf-jun,pustin suzidan olingan bulib qadimda tarqi dunyo qilgan zoxidlar jundan to`qilgan kiyim yoki pustin kiyib yurishni odat qilganlar.Tasavvuf yoki sufiy suzlar XI asrning boshlarida yashagan Abu Xoshim Sufiydan boshlab j`riy etilgan. Ungacha zuxd-zozidlik, tarkidunyochilik, taqvodorlik parxezkorlik kabi suzlar ishlatilgan.)

Binobarin, ziyorilarimiz, talabalarniag ruhiy dunyosi ancha boyidi, yangi oliy uquv yurtlari, universitetlartlar tash. qilindi; ilm axli chet eldag'i olimlar b-n mustahkam ijodiy aloqalar o`rnatdi. Buning natijasida tabiat va texnika-texnologiya xaqidagi fanlarimiz xam jaxon andozasi darajasiga kutarila boshladi. Olimlarimiz ilm-fanning dolzarb soxalarida tadqiqotlarlar olib borishga kirishdilar. Tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni matematik modellash, informatika va xisoblash texnikasi xamda extimollar nazariyasi soasidagi, geologik ja-rayonlarning konuniyatlarni, molekulyar genetik, genetik xujayra soxaodagi tibbiyat, kishloq xujaligi, paxta selektsiyachiligidagi, muddalarning kompleks fizikaviy-kimyoviy xossalarni o`rganish b-n bo`liq, energiyaning noananaviy turlarini yaratish — Quyosh energiyasini kompleks va samarali suratda boshqa turdag'i energiyaga aylantirish borasidagi tadqiqotlar ana shular jumlasidandir.

Fanning rivojlanishi uchun imkon yaratish va uni boshkarish muxim axamiyatga ega. Ilmiy muassasalarni bir joyga jamlash va markaz-lashtirish umummilliy xamda xalqaro ilmiy tashkilot, markazlarning paydo bulishiga olib keldi. XX asrda ixtisoslashtirilgan tadqiqot muassasalari keng taraqqiy etdi

2 mavzu . Qadimgi va o`rta asrlar davri fizikasi

Reja:

- 1. Antik bosqich (eramizgacha VI-V asrlar)**
- 2. Antik davr mexanikasiga doir ayrim ma'lumotlar**
- 3. Tiklanish davri fizikasi (XV-XVI asrlar)**

1-§. Antik bosqich (eramizgacha VI-V asrlar)

Eramizgacha III-II asrlar quyosh va suv soatlarini yaratilishi, jismlarning vazni va chiziqli o`lchamlarini o`lchash usullarining hosil bo`lish va richakli tarozilarining paydo bo`lishi bilan xarakterlidir.

Eradan oldingi VI asrgacha davrda akustikaga doir birinchi kuzatishlar o`tkazilgan: Pifagor ton balandligi va tor yoki nayning uzunligi orasidagi bo-liqlikni aniqlaydi, elektr va magnetizimga doir birinchi ma'lumotlar paydo bo`lgan: matolarga ishqalangan qahrabo o`ziga mayda-mayda buyumlarni, magnit esa temirni o`ziga tortishi aniqlangan (Fales Milettekiy tomonidan).

Eradan oldingi V-IV asrlarda materianing uzlukli donador tuzilishi g'oyasi paydo bo`ldi, moddalarning atomlardan tashkil topganligi To`g'risida Demokrit fikrlari olamga keldi. Platon tomonidan ko`rish nazariyasi yaratildi.

Eradan oldingi IV-asrda mexanika elementlari paydo bo`ldi. To`g'ri va egri chiziqli harakatlarning elementar nazariyalari ishlab chiqildi. Bir-biriga tik bo`lgan siljishlarni qo`shish qoidasi va richagning muvozanat qoidasi yaratildi (Aristotel tomonidan); o`zidan tovush chiqaruvchi jism havoni qisishi va siyraklashtirishi to`g'risidagi g'oyalar oldinga surilib havoda tovushning tarqalishiga doir to`g'ri fikrlar yuzaga keldi. Tovushning to`sinqlardan qaytishi hisobidan exo paydo bo`lishi tushuntirildi, yoruglikning sinishi To`g'risidagi tushunchalar oldinga surildi (Aristotel tomonidan).

Eramizgacha IV-II asrlarda olam tuzilishi To`g'risidagi birinchi model - olavning geosentrik nazariyasi paydo bo`ldi. Bu nazariyaning asoschilari Evdoks, Knidskiy, Aristotel va Gipparx edilar.Bunda Aristotelning roli katta bo`lgan. Eramizgacha III-asrda Aristarx Samosskiy tomonidan olamning geosentrik tuzulishi To`g'risidagi g'oya berilgan.U tomonidan Eramizgacha III-asrda Aristarx Samjsskiy tomonidan olamning geliosentrik tuzulishi To`g'risidagi g'oya berilgan, u yerdan oy va quyoshgacha bo`lgan masofalarni aniqlashga uringan. Yoruglikning To`g'ri chiziq bo`ylab tarqalish va qaytish qonunlari yaratilgan.Geometrik optikaning paydo bo`lishida Evklidning xizmatlari katta edi. Statikaning ilmiy asoslarini ishlab chiqdi, og'irlilik markazi va To`g'ri chiziq Arximed statikaning ilmiy asoslarini ishlab chiqdi, og'irlilik markazi va To`g'ri chiziq hamda tekislikka nisbatan kuch momenti tushunchalarini kiritdi,uchburchakning og'irlilik markazini aniqladi, richagning qat'iy nazariyasini berdi,parallel kuchlarning qo'shilishiga doir qoidani ishlab chiqdi. U tomonidan gidrositatikaning asosiy qonun (Arximed qonuni) kashf etildi, jismlarning suzish shartlari aniqlandi. Eramizgacha bo`lgan II-asrda Ktesibiy tomonidan suv soatlari yaratildi.Bu soatlarga o`xshash soatlar to XVIII-asrgacha dunyoning ko`pchilik Eramizgaca II asrda Ktesibiy suv soatlarini yaratdi. Bu soatlarga o`xshash soatlar XVIII asrgacha dunyoning ko`pchilik mamlakatlarida ishlatildi.Eramizgacha II-I asrlarda Geron Aleksandiriskiy tomonidan bir qator muhim kashfiyotlar qilindi.U richag, darvoza, pon, vint va blok To`g'risidagi aniq hisoblashlarni bajardi; richag va blokdan foydalanishda kuchdan yutish vaqtidan yutqazish orqali yuzaga kelishini isbotlovchi qoidani oldinga surdi. U hozirgi zamon bu- turbinasini eslatuvchi eolipul asbobi To`g'risida yozuvlarni qoldirgan,

shu bilan birga bir qator texnik ixtiolar yaratgan. K. Ptolomey yoruglikning sinishini tajribada aniqladi. U geosentrik nazariyaga oxirgi shaklni berdi.

2-§. Antik davr mexanikasiga doir ayrim ma'lumotlar


Qadimgi fanlardan biri bo`lgan mexanikaning taraqqiyot tarixi jamiyat tarixi bilan chanbarchas bog`langan. Statika mexanikaning eng avval vujudga kelgan sohasidir; statika misrliklarning binokorlik san`ati, qadimgi yunonlarning memorsozligi va savdoda tarozining rasm bo`lishi bilan bo`liq ravishda rivojlangan.

Qadimgi zamon mexanikasi va qurulishlarining yodgorliklari (Misr ehromlari, qadimgi Gresiya va Rimda qurulgan inshootlarning qoldiqlari), papirusga yozilgan tarixiy ma'lumotlar antik dunyo olimlarining asarlari statikaning qadimdayoq ancha rivoj topganini tasdiqlaydi.

Misr papiruslarida pallali tarozining (1-rasm) va quduqdan suv chiqaradigan havoza (shaduf) ning (2-rasm) tasviri topilgan. Demak, kishilar yelkalari teng bo`lgan va teng bo`lvagan richaglarni o`sha zamonlardayoq bilganlar.

Qadimgi Gretsイヤada fan yanada rivojlangan edi. Grek olimi Arxit Terentskiy (taxminan eradan oldingi 440-360 yillarda yashagan) mexanikaning boshlan-ich prinsiplarini aniqladi, shuningdek blok va vintni ixtiro qildi.

Qadimgi zamonning eng ulu- mexanik va matematikalaridan biri taxminan eramizdan oldingi 287-312 yillarda yashagan yunon olimi Arximed edi. U o`zining fizika va matematika sohasidagi bilimlarini tabiat va texnikaning xilma-xil masalalariga, chunonchi, har xil mashina va inshootlar qurushga tadbiq etdi. Arximed, jumladan, cheksiz vint va Arximed vinti deb ataladigan suv chiqaradigan mashina ixtiro qildi. Arximedning suv chiqaradigan mashinasi uzunligi 4-6 m keladigan, ikkala tomoni ochiq silindr trubadan iborat. Trubaning ichiga sirti vint shaklida bo`lgan val uzunasiga o`rnatalgan. Vintning bir uchi suv chiqariladigan joyda bo`lib, ikkinchi uchi suvgaga botiriladi. Vint aylanganda suv trubadan ko`tarilib, yuqoridagi teshikdan muttasil oqib chiqadi.




1- rasm. Misr tarozisi

Demak, vint haqiqatda qiya tekislik prinsipi asosida ishlaydi. Arximed vinti porshenli nasoslardan afzal, chunki u loyqa va iflos suvlarni ham chiqaraveradi. Vaholanki, porshenli nasoslardan faqat suv toza bo`lgan hollarda ishlaydi. Arximedning suv chiqaradigan mashinalari hozirgi vaqtida deyarli ishlatilmaydi, chunki ular markazdan qochirma nasoslardan bilan mutlaqo tenglasha olmaydi. Ammo eramizdan oldingi III asrda bu mashinaning ixtiro etilishi ajoyib yutuq edi. Hozir Arximed vinti ahyon-ahyonda qattiq va sochiluvchan jismlarni bir joydan ikkinchi joyga ko`chirishda, suyuqliklarni aralashtirishda va ba`zi mashinalarning tarkibiy qismi sifatida ishlariladi.




2- rasm. Misr shadufi.

Eramizdan avvalgi 213 yili Rim askarlari Arximedning tu-ilgan shahari - Sirakuzani qamal qildilar. Shahar mudoofasi uchun Arximed bir qancha harbiy mashinalar: xarsang va mayda toshlarni uzoqqa otadigan manjaniq (katapulta)lar, to`plar, shuningdek “turna rumshuq”lar (ilmoqlar) ixtiro qildi. Arqon bilan dushman kemalarining tumshu-iga tushurilgan “turna rumshuq”lar ularni ilib olib, silkitib-silkitib ishga yaramaydigan qilib qo`yardi. Bunday mashinalarning qismlari bloklar, vintlar, tishli -ildiraklar, prujinalar va suv dvigatellari edi.



3-rasm. Cheksiz vint.

Arximed mashinalarining qilgan ishlari haqida qadimgi zamon tarixchisi Plutarxning ajoyib hikoyasini keltiramiz: “Rimliklar shaharni ikki tomonidan qamal qilganlarida sirakuzaliklar qo`rqib vahimaga tushdilar. Odamlar qo`rqqanidan churq etmas edi, chunki bunday dahshatli kuchga qarshilik ko`rsata olishlariga ishonmas edilar.




4- rasm. Qadimgi Gretsiyadagi suv ko`targich (Arximed vinti)

Xuddi shu vaqtida Arximed o`z mashinalarini ishga soldi. Mashinalar dushman piyodalarining ustiga shovqun-suron bilan turli-tuman o`q va katta-katta tosh yo-dira boshladi. Hech qanday kuch bularning zarbiga chiday olmas edi. Shahar devorlari tomonidan dengizdagi kemalar ustiga qo`qqisdan paydo bo`lgan shoxga o`xshatib egilgan xodalar kemalarga zarb bilan urulib, ularni -arq qilar edi. Turna panjasি va tumshuqlariga o`xshash temir panjali yoki tumshuqli xodalar kemalarning tumshu-idan ilib olib, tikka ko`tarar va tumshu-ini osmonga qilib qo`yib yuborib, cho`ktirardilar. Ba`zan arqonlar bilan chanbarchas bo-lab olingan kemalar u yoqdan-bu yoqqa silkitilar va shahar devorlari yonidagi qoya va toshlarga urilib, ichidagi askarlari bilan birga suvga -arq bo`lardi. Ko`p kemalar dengiz sathidan juda baland ko`tarilib, ichidagi askarlari batamom suvga tushib ketmagunicha yoki otib bitirilmaguncha havoda u yoqdan-bu yoqqa chayqatib turilardi. So`ngra bo`sagan kema yo shahar devorlariga urib majaqlanar yoki, ilmoq bo`shatilib dengizga cho`ktirildi. Rimliklar sarkardasi Marsell bir qancha kemalarga o`rnatib, devorlar yoniga keltirgan mashina sambuka deb atalardi, chunki u o`sha zamondagi sambuka deb atalgan muzika asbobiga o`xshash edi. Bu mashina devorga yaqinlashib kelishi bilan devordan unga o`n talant (taxminan 250 kG) og'irlidagi toshlar yo-ila boshladi. Dahshatli tosh yom-iri kema korpusini majaqladi, boltlarini sindirdi, kemani ulangan yerlarini ajratib yubordi... Nihoyat, rimliklar shunchalik yurak oldirdilarki, devor ustida arqon yoki xoda ko`rinib qolgudek bo`lsa: “Ana , voy ana!” deb qichqiradigan bo`lib qoldilar; ular, Arximed bizga yana boshqa biror mashina yubormoqchi bo`lsa kerak, deb o`ylab qocha boshladilar. Buni ko`rib turgan Marsell har qanday kurashni va hujumni to`xtatdi...”.

Arximed bir qator ilmiy ishlarida o`zining statika va gidrostatika sohasidagi kashfiyotlarini bayon qiladi. U gidrostatika qonunlaridan birini ta`riflab berdi; Arximed qonuni deb ataladigan bu qonunga ko`ra: “Suyuqlikdan yengil jism suyuqlikka botirilganida shu jism hajmida suyuqlik og'irligi bilan shu jism og'irligi ayirmasiga teng kuch jismni yuqoriga itaradi.

Suyuqlikdan og'ir jismlar suyuqlikka botirilganida to suyuqlik tubiga yetguncha cho`ka boradi va suyuqlikda turgan vaqtida o`z og'irligidan o`z hajmidagi suv og'irligicha qismini yo`qotadi”.



5- rasm. Geron sifoni.

Arximed shak-shubhasiz statika asoschisi deb atalishga haqlidir. U richag nazariyasini birinchi bo`lib bayon qildi, shu jumladan, richak qonunini ta`riflab berdi: “Tarozidagi o`lchovdosh og`irliliklar osilgan nuqtalardan tayanch markazigacha bo`lgan masofalar og`irliliklarga teskari proporsional bo`lsa bu og`irliliklar muvozanatda bo`ladi”.

Bu qonunda hozirgi zamon mexanikasida asosiy rol o`ynaydigan kuch momenti tushunchasi oshkor bo`lmasa ham, mavjuddir. Arximedning ilmiy ishlari muvozanatning ilmiy nazariyasini yaratishga va, shu bilan, muhim amaliy masalalarni hal qilishga imkon berdi.

Eramizning birinchi asrida Aleksandriyada mashhur grek olimi va injeneri Geron yashagan va ijod etgan; u qizdirilgan yoki siqilgan bu- yoki havo bilan ishlaydigan bir qancha ajoyib apparatlar yaratgan.

Geron har xil sifonlar (5- rasm) , eshik ochadigan apparat, oqib chiqayotgan bug' jarayonining reyaksiyasi ta'sirida harakatlanadigan shar; “obizamzam” sotadigan apparat va hokazolar ixtiro qilgan. Geron ixtirolari antik dunyo texnikasi taraqqiyotining umumiylaridan ancha yuqori edi. Geron ixtiolariga uning zamondoshlari yetarli darajada tushunib yetmadilar.

Quldorlik tuzumi sharoitida mexanizm va avtomatlar keng qo`llanilishi mumkin emas edi, albatta. Faqat Geronning o`t o`chirish nasosi va boshqa ba`zi gidravlik mashinalari ixtirochi hayot vaqtida turmushga tatbiq etilgan.

Shunday qilib, qadimgi vaqtlardayoq statika va gidrostatika sohasida ko`pgina ma'lumot to`plangan, ko`pgina oddiy mashinalar qurilgan edi. U vaqtarda dinamika uncha taraqqiy etmagan edi.

Dinamikani yaratishga birinchi bo`lib eramizdan oldingi 384-322 yillarda yashagan ulu- grek olimi Arestotel urunib ko`rgan. Aristotel dinamikasida ko`pgina yanglish fikrlar bor edi. Aristotel dinamikasi ko`p jihatdan fantastik xarakterga ega edi, chunki u eksperimentga, tajribaga asoslanmagan edi. Bu olimning ilmiy usuli tajribaga emas, balki mushohadaga asoslangan edi. Aristotel tabiatda ikkita harakat: tabbiy harakat va majburiy harakat bor deb hisoblar edi.

Aristotel jismlarning tabbiy harakati tashqi sabab bilan sodir bo`lmay, balki o`z-o`zidan sodir bo`ladi, deb hisoblaydi. Tabbiy harakarlar jumlasiga Aristotel osmon jismlarining aylanma harakatini, shuningdek og`ir jismlarning pastga tushishini va yengil jismlarning yuqoriga ko`tarilishini kiritdi. Aristotel fikricha, boshqa hamma harakatlar majburiy harakatlar bo`lib, ularning sodir bolishi uchun ta`sir etuvchi sabab-“kuch” zarur edi.

Aristotel, og`irroq jismlar yengilroq jismlardan ko`ra tezroq tushadi, deb o`ylardi. U, ta`sir etuvchi kuch tezlanishga emas, balki tezlikka To`g`ri proporsional degan noTo`g`ri qoidani oldinga surdi.

Aristotel mexanikasi jismlarning inersiyasini To`g`ri tushinishga imkon bermasdi. Uning fikriga asoslanilsa, masalan, gorizontga qiyalatib otilgan jism avval To`g`ri chiziq bo`ylab harakat qiladi, so`ngra yo`nalishni keskin o`zgartirib, tik tushadi degan xulosa chiqarilishi kerak.

Aristotel dinamikasi bir qancha xato qoidalarga ega bo`lishiga qaramasdan, fan taraqqiyotida oldinga qarab qo`yilgan qadamlar edi. Aristotel mexanikaning kuch va tezlik kabi tushunchalariga e'tiborni jalb etdi va mexanik harakatlarni o`rganishga birinchi bo`lib urunib ko`rdi.

3-§. Tiklanish davri fizikasi (XV-XVI asrlar)

Mexanika masalalarini o`rganishning yangi bosqichi Tiklanish davriga oid bo`lib, ajoyib italyan mutafakkiri va olimi Leonardo da Vinci (1452-1519 yillar) nomi bilan bog`langan.

XIV-XV asrlarda dengizda suzish, harbiy ish, hunarmandchilik va savdoning taraqqiy etishi bilan fanlar ham barq urib rivojlana boshlaydi. Olimlar tabiatni o`rganishda mushohada usulidan voz kechadilar. Leonardo da Vinci birinchi bo`lib, tajriba va eksperiment-bilishning yagona manbaidir, deb chiqdi. U o`zining ilmiy tekshirishlarida o`z farazlarini tajribada tekshirib ko`rishga intildi. Leonardo da Vinci, shubhasiz, mexanika tarixida birinchi bo`lib maxsus uyuştirilgan tajribalar shu jumladan, jismlarning erkin tushushini o`rganishga doir tajribalar o`tkazgan olimdir. U Aristotel mexanikasining ba`zi yanglish fikrlariga barham berdi. Leonardo da Vinci, gorizontga qiyalatib olingan jism parabola bo`ylab harakat qilishini ko`rsatdi va og`irlik kuchi ta`siri ostida jism tekis tezlanuvchan harakat qiladi, degan xulosaga keldi.

Leonardo da Vinci o`z tekshirishlari natijasida inersiya qonunini chiqarishga yaqinlashib qoladi. Uning ishlarida bunday yozuvlar bor: “Har qanday jism o`zini saqlashga intiladi yoki harakatdagi har bir jism uni harakatlantiruvchi kuch bor ekan, doimo harakatda bo`ladi”. “Har qanday harakat uni vujudga keltirgan kuchning ta`siri to`xtamagunicha o`zining To`g`ri chiziqli yo`lini davom ettira beradi”.

Leonardo da Vinci fan tarixida birinchi bo`lib uchish nazariyasi bilan shu-llandidi. Uning qushlarning uchishi ustidagi ajoyib va nozik kuzatishlari bizning zamonamizda ham o`z ahamiyatini yo`qotmagan.

U o`zining daftarlariiga: “Qanotlarning havoga urilishi og`ir burgutni eng og`ir havoda ham, eng siyrak havoda ham ko`tarib tura olishi sizga ayon. Shuningdek, dengiz ustida harakat qilayotgan havo yelkanlarini ham bilasiz. Bu dalillardan katta qanotga ega bo`lgan odam qarshilik ko`rsatuvchi havoga kuch bilan ta`sir qilib, uni yenga oladi va yuqoriga ko`tarila oladi, deyish mumkin”. Leonardo qushlarning uchishi havoning siqilishidandir deb tushuntiradi: “qush qanotini qoqqanda havo siqiladi va qush havoda, qittiq jism ustida turgandek turadi”. Nazariy tekshirishlari unga planyor modelini yasashga, parashyut ixtiro qilishga va gelikoptyor qurish mumkinligini asoslashga imkon beradi.

Leonardo da Vinci qushlarning uchishini tekshirish asosida ta`sir va aks ta`sir prinsipini ta`riflashga yaqin keldi: “Havo predmetga qarshi qanday kuch hosil qilsa, predmet ham havoga qarshi shuncha kuch hosil qiladi”.

Leonardo da Vinci genial olimgina bo`lib qolmay, ko`zga ko`ringan injiner ham edi. U kanallar loyihasini tuzdi va ularni qurdi, su-orish ishlari bilan shu-llandidi, bir necha mudoffa inshootlari, qo`r-onlar, minoralar va bastionlarning loyihasini ishladi. Leonardo da Vinci loyihasi asosida yasalgan mexanik charx undan oldin qo`llanilgan charxlardan ancha unumli ishlar edi. 1663-yilda E. Somerset bu- mashinasini ixtiro etdi. Bu mashina Londonda yasaldi va suvni 40 fut balandlikka ko`tarib berdi. 1674 - yilda D. Papin tomonidan suvning qaynash temperaturasini bosimga bo-liqligi kashf etildi. Ancha past bosimlar sharoitida suv 100°C dan pastroq temperaturalarda qaynashi qayd etildi.

Nyutonning 1687 yilda bosilib chiqqan «Natural falsafaning matematik asoslari» kitobi uning ilmiy ijodiyotining cho`qqisi bo`ldi. Bu kitob o`sha davrdagi fizika- matematika sohasidagi bilimlarinng chinakkam ensiklopediyasi edi. Bu kitobda olim birinchi bo`lib harakatning mashhur qonunlarini ta`riflab berdi.

“I qonun. Tinch holatda yoki To`g`ri chiziqli tekis harakatda bo`lgan har qanday jism to ta`sir etuvchi kuchlar uni bu holatdan chiqarmaguncha shu holatini saqlaydi.

II qonun. Harakat miqdorining o`zgarishi unga qo`yilgan harakatlantiruvchi kuchga proporsional va kuch ta`sir etadigan yo`nalishda yuz beradi

III qonun. Ta`sirga hamisha unga teng va qarama-qarshi aks ta`sir bor yoki, boshqacha qilib aytganda, ikki jismning o`zaro ta`siri bir-biriga teng va qarama-qarshi tomonga yo`nalgan bo`ladi.”

Bu kitobda mexanika qonunlaridan tashqari, Nyutonning matematikaga doir ishlari, osmon mexanikasi va gidromexanikaga doir tekshirishlari bayon etilgan.

1610 yili astronomiyida juda muhim bir voqeа yuz berdi: Galileo Geliley o`zi yasagan kichkina teleskop yordamida Yupiterning to`rtta katta yo`ldoshini topdi. Bu yo`ldoshlar, ya`ni Yupiter atrofida aylanuvchi oylar Yupiterning tungi osmonida xuddi bizning Oydek ko`rinib turadi. Hozirgi vaqtida yupiterning hammasi bo`lib to`qqizta yo`ldoshi borligi ma'lum, bulardan beshtasi shu qadar kichik va xiraki, hozirgi zamonning eng kuchli teleskoplari bilan ham ularning ba`zilarini ko`rib bo`lmaydi. Ehtimol, Yupiterning yanada xiraroq yoldoshlari ham bordir, ammo hozirgacha bu yo`ldoshlardan faqat to`qqiztasigina bizga ma'lum.

Yuqorida qayd etganimizdek 1687- yilda chop etilgan Nyutonning “Natural falsafaning matematik asoslari” kitobi o`zida mexikaning asosiy qonunlari va aksiomalarini aks ettirgan, xususan uning asosiy uch qonuni (Nyuton qonunlari) va butun olam tortishish qonunini o`z ichiga olgaq edi. Bu asarning paydo bo`lishi fizika tarixida yangi davr ochilganligidan ya`ni fizika fan sifatida shakllanib o`zining yangi taraqqiyot davriga qadam qo`yanligidan nishona edi. Chunki unda tabiatdagи ko`pchilik jaroyonlarni boshqaruvchi qonunlar o`z aksini topgan edi. Bu asar chop etilganidan so`ng fizika sohasida yangi- yangi kashfiyotlar paydo bo`la boshladi. Ularning asosiyлari sifatida quyidagilarni ko`rsatib o`tish mumkin.

1738 - yilda D. Bernullining “Gidrodinamika” asari nashr etildi. Bu asarda suyuqliklarning oqim naylaridagi barqaror oqimi o`rganilgan edi (Bernulli tenglamasi). Bu asarning muhim tomoni shundaki, unda issiqlik moddadagi zarrachalarning harakati natijasi, gazlarning bosimi esa undagi molekulalarining idish devoriga to`qnashushlari natijasi ekanligi ko`rsatib berilgan. Shunday qilib, D. Bernuli gidrodinamikaga asos solgan edi.

1763 - yilda urallik injener I.I.Polzinov bu- mashinasi loyihasini ishlab chiqdi. 1770 - yilda shotlandiyalik kimyogar va fizik Jozef Blek (1728-1799) issiqlik si-imи tushinchasini kiritdi. Ingliz J. Uatt quvvat birligi uchun – ot kuchi (o. k.) birligini taklif etdi.

1783 - yilda A.Volta elektr kondensatorni yasadi 1784 - yilda J.Uatt universal bu-mashinasini yaratdi. 1799-yil insoniyat tarixida birinchi doimiy elektr tokining manbasi yaratilganligi bilan qadrlidir. Shu yilning oxirida mashhur italyan fizigi, kimyogar va fiziolog Alaksandro Volta (1745-1827) tomonidan doimiy elektr tokining manbasi - “Volta ustuni” nomi bilan bizga m`alum bo`lgan Galvani elementi yaratildi.

1830-1831 yillarda fransuz fizigi Felika Savar (1791-1841) odamning normal qulo-ini eshitish chegarasini aniqladi: 24000 Hz (yuqori chegara) va 14-16 Hz (quyu chegara).

1849-yilda A.Fizo laboratoriya sharoitida tishli -ildirak usuli yordamida yoruglik tezligini o`lchadi, natija 313274,3 km/s bo`lib chiqqan. 1853-yilda G. Videman (nemis fizigi, 1826-1899) va R. Frans metallarni issiqlik

o`tkazuvchanligini elektr o`tkazuvchanligiga nisbatani temperaturaviy bo-lanishini aniqladilar (Videman-Frans qonuni). 1876 yilda J.Kerr tomonidan magnitooptik effect ochildi. P.N.Yablochkov tomonidan birinchi bo`lib amalda qo`llash mumkin bo`lgan elektr

yoritgich manbasi (Yablochkov shami) va transformator yaratildi. Shu yili Amerikalik olim A.G.Bell tomonidan telefon ixtiro qilindi.

1883 yilda amerikalik ixtirochi Tomas Alva Edison (1847-1931) termoelektron emissiya hodisasini kashf etdi.U dunyoda eng ko`p ixtiolar yaratgan olim sifatida qadrlanadi.U 1000 dan ortiq ixtirosi uchun patentlar olgan.U Bell telefonini takomillashtirib 1877 yilda fonografni ixtiro qilgan, elektr lampochkasi uchun patron va lampaning rezbali sokolini konstruksiyalagan, elektrosaqlagich, elektrohisoblagich, buraluvchi kalit, rekorder, megafon va hokozolarni yaratgan. Lampalarini parallel ulashni amalda qo`llagan. 1881-yilda birinchi issiqlik elektrostansiyani barpo etgan.

A. S. Popov radioni ixtiro qildi. 1896-yil 24 mart kuni 250 metr masofaga birinchi radiogramma uzatildi. Shuni aytish kerakki 1892 yilda radioaloqa prinsipi To`g`risida ingliz olimi Uilyam Kruks (1832-1919) ham o`z g`oyalarini oldinga surgan edi. 1896- yilda simsiz aloqa uchun A. S. Popovning asboblariga o`xshash va radioto`lqinlarni uzatuvchi asbobni italyan fizigi Gulelmo Markoni (1874-1937) ham yasagan edi. G. Markoni xizmatlari tufayli 1901-yilda Atlantik okeani orqali radioaloqa o`rnatildi.

3-Mavzu: Markaziy osiyoda Temur va Temuriylar davri fani va texnikasi.

Reja:

1. Амир Темур даврида фан ва ишлаб чикариш XV asrda ilm-fan va madaniyat.
2. Mirzo Ulu-bekning astronomiya faniga qo`shtan xissasi.
3. XV-XVI asrlarda musiqa, adabiyot fanlarining rivojlanishi.

1. АМИР ТЕМУР ДАВРИДА ФАН ВА ИШЛАБ ЧИКАРИШ.

Собик совет хокимияти даврида битилган тарихий адабиётларда Амир Темурнинг ижтимоий-сиёсий фаолиялтига аксари, салбий баҳо берилар, со хибқироннинг яратувчанлик фаолияти хакида эса хеч нима дейилмас эди. 60-йилларга келиб СССР да феодал утмишин идеаллаштириш" га карши кураш кучайиб, тарихий адабиётларда Темур даврига кора бўёклар чапланди, сохибқироннинг узига эса шафкатсиз хукмдор, конхур боскинчи, тарраккиётни емирувчи деган ёрликлар осилади. Шунга карамай, айни уша йиллари ЮНЕСКО буюк сохибқирон ютида Амир Темур да темурийлар даври Марказий Осиё санъати- ни урганишга багишлаган халкаро конференция утка- зиш хакида карор кабул килди. Амир Темур гуллатиб яшнатиб кетган Самаркандинг 2500 йиллик туйига катта тайёргарлик бораётган эди. Шу сабабларга ку- ра сохибқироннинг шахсиятига хос баҳо бериш зарур рияти туғилиб колди. 1968 йилда академик Иброҳим Муминов ёзган "Амир Темурнинг Урта Осиё тарихида- ги роли ва тултган урни" деб номланган асар узбек ва рус тилларида чоп этпилди. Бу асар уша даврдан колган ёзма манбалар асосида битилган булиб, илмий йуналиши, холосаларининг далиллари ва рухиятининг босикилиги билан яратилаётган бошка тарихий асар- лардан фарқ килиб турарди. Бирок, Амир Темур фао- лиятига хиссиётига берилмасдан, холисона берилган баҳо хаммага хуш келмади, айникса, расмий мафкура- нинг "курикчи" ларига ёкмади.

Кайта куриш йилларида, тоталитар тузум таркаб, Узбек халки мустакилликка эришгандан сунг Амир Темур фаолиятига кизикиш кучайиб кетди,

у хакида янги адабиётлар пайдо булди, илгари босыиган- лари кайта нашр этилди, Амир Темур хакида Оврупо олимлари ёзган китоблар узбек ва рус тилларига таржима килинди.

Одатда, тарихчилар Амир Темур фаолиятини ёритишда мустакил, марказлашган давлат тузиш муаммолирига, уни бошқариш ва харбий санъат масалаларига купрок эътибор берадилар. Биз ушбу рисолада Темур даври фани, маданияти ва ишлаб чикириши мавзусини ёритишга харакат килдик.

Темур даврининг иишлаб чикириши хакида гапир- ганда, табийки, биз уни хозирги тушунча кулами би-лан улчаймиз. Ишлаб чикиришнинг у бки бу тури якка нусха маҳсулотда куринган булса хам, тарихий нуктаи назардан бунинг ахамиятини хис кила олсак, бас.

Амир Темур аввало улуг давлат арбоби эди, шу билан бирга, Туронзаминда Ренессансни давом эттири-ган, фан ва маданиятни кадрловчи инсон эди. У инсо-ний фаолиятнинг хамма соҳаларида; диний ва дунёвий илмда, харбий санъатда, хатто кундалик турмушда иктидорли одамлар намоён булишига сабабчи булди. Фан ва маданиятни эса давлат ахамиятига молик фаолият деб баҳолади.

Х-XII асрлардла кечган Ренессанс даври Чингизхон боскини таъсирида узилиб колган эди. Амир Темур даврига келиб, Самарканнда ва унинг атрофида янги куч уйгонди, кейинчалик Эрон, Хурросон, Туркия, Хин-дистон мамлакатлари ривожига катта мадад берди. Бу жараён Амир Темурдан кейин тухтаб колгани йук.

Амир Темур иморотсозлик ва меъморчиликнинг билимдони эди, хунар ва хунармандларни, илм ва олимларни юксак даражада кадрлади, фан ва маданият турли соҳаларининг тулаконли ривожланиши учун барча шароитни яратишга интиилди. Шунаай килмасдан туриб, мустакил давлатнинг баркарорлигини, кудратини таъминлаб булмаслигини у яхши тушунар эди.

Испанияни машхур элчиси, сайёх, ва тарихчи Амир Темур саройида бир неча йил истикомат килган Руи Ганзалес де Клавихо таъкидлаганидек, соҳибкiron Уз давлатининг пойтахти Самарканнни улуглаш максадида салтанатнинг чекка-чеккаларидан ва бошка улкалардан хунармандларни, олим ва санъаткорларни жалб килди.

Бу жараёнга баҳо беришда шуни унутмаслик керакки, мугуллар исилоси даврида Мовароунахрдан жуда куп олимлар, хунармандлар бош олиб кетиб, Араб улкаларида, Эрон, Хиндистон заминида ва бошка юртларда урнашиб колган эди. Амир Темур биринчи навбатда ана ушаларнинг авлодларини кучириб келтирди. Шундан кейин Туроннинг катор шахарларида турли хунар эгалари урнашиб, куплаб маҳсулотлар чикара бошладилар. Тукимачилмк матолари ишлаб чикириш, металсозлик, курилиш, ганчкорлик, кийим тикиш айникса етакчи урин эгаллади. Марказлашган давлат барпо килиниши истеъмолчилар куламини ошириб юбодои ва тукимачилик саноати билан ти-кувчилик созхаси ривожига катта туртки берди.

Хозирги зомон тарихчилари, олимлари Амир Темур давридан колган шохона кийималрнинг кодикларини урганиб чикиб, XIV-XV асрларда тукимачилик техникаси ва хунармандларнинг бадиий савияси, халкнинг анъинлари юксак даражада булганлигини эътироф этадилар.

Тукимачилик саноати махсулотлари бошка мах;- сулотларга караганда купрок чикарилди, махаллий истеъмолчилардан ташкари, дала-даштдаги кучманчи, ярим утрок ахолига, узок-узок улкаларнинг' бозорлари- га етиб борди.

Бу тукимачилик саноали уша даврда купрок товар хусусиятини олганидан далолат береб турибди.

Самарканд атрофи кишлоклари хам узига яраша махсулот етиширишда ном чикарди. Бу ерларда аввало, тилга олишга арзийдиган гузал, дунёнинг турли юртларида машхур шахарлар номи берилган, Фориш, Багдод, Дамаск, Султония, Шероз ва шу каби кишлоклар барпо этилди. Колаверса, уларда етишириладиган мева, сабзавоти, узум ва полиз экиилари махсулотларининг донги узок-узокларга кетди. Клавихо бу ерларда гушт, нон, дон, пахта, пахтадан ва ипакдан тикилган матолар, олтин ва олтиндан ясалган буюмларнинг жуда куплиги ва улар дунёнинг бошка ерларидағига караганда анча арzon экани хакида хай- ратланиб ёзган. Хорижлик бир кишининг холисона келтирған маълумоти Амир Темур даврида ишлаб чикариш хавас килгулик даражада ривожланиб кет- ганлигидан далолат беради.

Шулар катори Амир Темур даврида Туронда метал куйиш, металлага ишлов бериш, шишачилик са- ноати, курилиш, меъморчилик, кулолчилик, когоз ишлаб чикариш, кишлок хужалиги хам ривож топди. Ишлаб чикаришнинг бу турлари асосан шахар ва шахар атрофларида одат булса, металл куйиш корхоналариказилма бойликлар топилган тогли ерларда борпо булди.

Мелталга ишлов бериш саноатида рангли металлар, жумладан, олтин, кумуш буюмлар- заргарлик мухим соҳа хисобланган. Мисни кайта ишлаш, ундан турли рузгор буюмлари ясаш хам алоҳида урин тутган.

Кейинги йилларда утказилган археологик казишималар натижасида Шердор мадрасасининг' шаркий тарафида XIV асрнинг охиrlари, XV аср бошларида ишлатилган металл куйиш печи топилган. Унинг ичидан бронзаданя куйилган бадий буюлмар колиб кетган экан,

Тарихий хужжатлар гувохлик беришича, Самаркандинг олти дарвазасидан биттаси чуяндан, яхлит килиб, накшлар билак куйилган. Амир Темурнинг шахсий маблаги хисобига курилган масжиднинг дарвозаси етти хил металл котишимасидан иборат булган. Бундан хайратга келган Нодиршох-Эрон хукмдори, уни уз юритига олиб кетган. Кейинчалик дарвоза Самарканда кайтарилган, бирок, афсуски, XVIII асрда ундан танга зарб килинган.

Мая, волажа, вуаль, маркизет, батист қайта тараш тизимида йигирилган ингичка иплардан полотно ўрилишда тўқилади. Каниер, Вахор, Креп майдага нақшли ўрилишда тўқилади.

Мая ва вольта - қайта тараш тизимида йигирилган якка ипдан тўқилган нақш борилган юпқа газлама.

Вуал ва маркизет - яхши пишитилган қайта тараш тизимида йигирилган ингичка ипдан тикилган газламалар. Вуалга нақш босилади. Маркизет вуалдан юпқароқ бўлади, уни оқартириб, майнин рангга бўяб ва нақш босиб ишлаб чиқариш мумкин.

Батист - қайта тараш тизимида йигирилган кичик тексли якка иидан полотно ўрилишида тўқиладиган юпқа, майнин газлама, оқартириб ёки оқ сатҳига нақш босиб чиқарилади.

Қишки ип газламалар кичик гурухига фланел, бумазей ва байка киради. Булар - қалин, юмшоқ, бир томонида ёки иккала томонида толаларини титиш натижасида туклар хосил қилинган ип газламалар. Қишки газламаларнинг тақдаси ўрта йўғон тукдор аппарат тизимида йигирилган иплар ташкил қиласди. Арқоқ бўйича нисбий зичлиги танда бўйича нисбий зичлигидан катта, чунки туклари арқоқ иплар толалари ҳисобига чиқарилади.

Фланел - қишки асеортиментдаги энг юпқа ва енгил газлама. Полотно, ваъзан сатин ўрилишида тўқилади, икки томонида туклари бўлади, оқартирилган, сидирға бўялган нақш босилган тарзда бўлади.

Бумазей - фланелдан қалинроқ ва оғирроқ газлама. Сатин ўрилишида тўқилади, оқартирилган, сидирға бўялган ва нақш босилган тарзда ишлаб чиқарилади. Фланелдан фақшли равишда тескари томонида, ваъзан ўнгига тараб чиқарилган туклар бўлади.

Байка - икки юзли ўрилишда тўқиладиган қалин ва оғир газлама, икки томонида тараф чиқарилган туклари мавжуд. Хом ва сидирға рангда бўялган ҳолда ишлаб чиқарилади, 1м² нинг оғирлиги 300-360 гр.

Мавсумий ип газламалар кичик гурухига классик газламалар - поплин, тафта, кашибер, шотландка, пике ва бошқалар киради. Поплин - қайта тараф тизимида йигирилган ва пишистилган иидан полотно ўрилишида тўқилган зич газлама. Мерсиризациялаб оқартириб оч рангга бўяб танда бўйича катта зичлиги натижасида хосил бўладиган кўндаланг йўли бўйлаб ишлаб чиқарилади. Сирт зичлиги 100-120 гр/см².

Тафта - тузилиши ва пардозланиши жихатидан поплинга ўхшаш, лекин ундан зичроқ ва сифатлироқ газлама, сирт зичлиги 140-150гр/м².

Поплин ва тафта, асосан, эркаклар баъзан аёллар кўйлаги тикиш учун ишлатилади.

Шотландка - катак - катак нақшли газлама оддий, тараф (карда) тизимида йигирилган ва ип ҳолатда бўялган иплардан саржа майдага нақшли полотно ўрилишида тўқилади. Бу газламалар эркаклар, болалар, аёллар кўйлаги ва ҳ.к. тикиш учун ишлатиди.

Кашемир - саржа ўрилиши сидирға ёки нақш босилган газлама, Ўрта йўғонликдаги оддий тараф тизимида йигирилган ипдан тўқилади.

Пике - қайта тараф тизимида йигирилган ипдан мураккаб ўрилишда тўқилган газлама, ўнгида бўйлама йўллар, ромблар тўлқинсимон йўллар тарзидаги буришма, қавилгансимон нағлар бўлади. Одатда, оқартирилиб, ваъзан сидирға ёки нақшдор қилиб ишлаб чиқарилади. Сирт зичлиги 134-180 гр/м².

Ип газламаларнинг кийимлик гурухига костюмлар, плашлар, куртка, пальто, маҳсус кийимлар тикиш учун мўлжалланган газламалар киради. Кийимлик газламалар нисбий зичлиги 60-100 фоизгача ва бундан юқори оддий тараф тизимида йигирилган ип ва қисман қайта тараф тизимида йигирилган иплардан тўқилади. Газламалар сирт зичлиги 250-300 гр/м² ва ундан катта бўлиши мумкин. Кейинги йилларда кийимли газламалар ишлаб чиқаришда пахта толасига кимёвий толаларни аралаштириб йигирилган иплардан кенг фойдаланилмоқда.

Ип газламалар таснифига кўра кийимлик материаллар бешта кичик гурухларга – сидирға, маҳсус, нақш босилган, меланж, гигар қишки гурухчаларга бўлинади.

Устки кийимлар учун астарлик ва қотирма мато сифатида ишлатиладиган газламалар, астарлик газламалар гурухини ташкил этадилар, уларга колинкорма бартофка енгил сорти ва бўйинбоғлик газламалар киради.

Тукли газламалар ипли газламаларнинг яна бир гурухини ташкил этиб, улар мураккаб тўқима ўрилиш билан тўқилади. Туклар пардозлаш корхоналарида маҳсус тук кирқувчи машиналарида узун арқоқ тушамасини қирқиб хосил қилинади.

Тукли ип газламаларининг кичик гурухига ярим баҳмал ва чий бархит киради.

Ярим ваҳмал - қайта тараф тизимида йигирилган ипдан арқоқ бўйича катта зичликда тўқилади. Сўнгра пардозлаш ж:араёнида калта сидига туклар яратилади.

Чий духобада бўйлама кетган тукли йўллар бўлиб, йўллар эни катта ёки кичик бўлиши мумкин. Арқоқ тукли газламалар сидирға рангга бўлган ёки нақш босилган ҳолатда ишлаб чиқарилади.

Ўзбекистонда шойи газламалар ишлаб чиқариш

2.1 Ипак ва ундан шойи ишлаб чиқаришга оид қисқача тарихий маълумотлар

Ипак - энг қадимий ва қимматбаҳо тўқимачилик хом ашёларидан бири. Физиковий ва механикавий хусусиятлари жихатидан кўп тўқимачилик толаларидан устун.

Биринчи ипакни эслаш Хитой билан боғлиқ. Хитой хронологиясида "Ипак курти" Си-Лин Чи эрамиздан аввалги 2640 йилда қолган "Худо" ғақидаги маълумотларда қайд этилган. Бу "Худо" хитойликларнинг ёзишича, кўл тўқув дастгогини ҳам ихтиро қилган. Қадимги Хитой шойи матолари IV - V асрларда тоғли Олтой Худудларида топилган. Асосан, бу матолар юпқа ва сидирға рангли мато бўлган.

Кўпгина йиллар мобайнида Хитой ҳалқи ипак олишини сир сақлаб келган. Корейслар 11 асрда ипакчилик билан танишадилар. Улар орқали японлар ипак билан танишадилар. Кейинчалик эса Хитойнинг қўшни давлатлари Хотан ва Хиндистон ипак билан танишади. XV асрда Афанасий Никитин ўзининг "Хождения за три моря" деган асарида Ҳиндистоннинг Гуджарат шаҳридаги тўқимачилик саноати тўғрисида маълумот келтирган. Ипакчиликнинг қўшни мамлакатларга тарқалишига қарамай Хитой ипак сотишида катта монополияга эга эди. Хитой карvonлари ўрта ва кичик Осиёни матолар билан таъминлаб турардилар. Европаликлардан биринчи бўлиб ипакчиликни Александр Македонский аскарлари кўришган. Аристотель Ҳиндистон саёҳатидан қайтганидан сўнг ўзининг "Ҳайвонлар тарихи" китобида ипак қурти ҳақида ёзган.

Римликлардан греклар ипак дараҳтда ўсадиган жун, деб овоза қилиб юборганлар. Римликларнинг бу хато фикрлари Европанинг бошқа ҳалқларига ҳам етиб борган. Яна ипак тўғрисида бошқа ҳақиқатга яқинроқ фикрлар ҳам мавжуд эди.

Масалан: Александр Македонскийнинг ҳарбий бошлиғи Неарх ипакни пахта билан чалкаштирган, римлик шоир Виргилий ипакни варгдан олинади, грек тарихчиси Дионисий ипак гулдан олинади деб ўйлаган.

Плиний Ипак қурти ҳақида тўғри маълумот берган, фақат негадир ипак қуртининг юрти Ассирию деб ҳисоблаган. Эрамизнинг бошида римликлар ипак кийимларини кийиб юришган деб ўйлаймиз. Дастлаб бу мато бомбици ипидан ёввойи ипакчилик қуртидан олинган. Шунақа матолар кўп миқдорда Ассирия ва грек орали Косда тайёрланган.

Ипакнинг ваҳосини у пайтларда унинг оғирлигига қараб шунча оғирлик миқдорида олтин билан тўлашган.

Византия императори Юстиниан қарор қабул қиласди. Бу қарорда ипак 8та бўлак олтин 1 фунт матога сотилган. Ипакни Византияга Перея орқали олиб келишган. 527 йилда бу 2 давлат ўртасида уруш бўлган ва бу уруш Юстиниани ипакни бошқа тарафлама ривожлантиришга мажбур қилган.

Араблар ипакчилик билан Персияда танишгандан кейин Шимолий Африкада, Исландияда, Португалияда, Сицилияда ишлаб чиқаришни ташкил қилдилар. 1130-1148 йилларда Палермадаги номдор ипакчилик манифактурасини Сицилиянинг подшоси Ражер-11 Византиянинг бир неча шаҳрларини ипакчилик манифактураси билан эгаллаб олган. ХП асрда Италиянинг катта шаҳрлари Лукка, Слена, Модена, Болонья ва Флоренцияларда ипакчилик ишлаб чиқариш бошланди. Генуя ва Венеция шаҳарлари ипак билан олди-сотди қилиб, гуллаб яшнаб кетди. Лукке ва Сиенада, асосан, черкав учун, Флоренцияда парча гражданлар кийими учун матолар, Генуяда кесилган вархитлар ишлаб чиқарилар эди.

Францияга 1147 йил ҳар хил юришлар савабли ипакчилик тухумлари Суриядан олиб келтирилган. Генрик Неварскийгача француз подшолари ўзининг ипакчилигини ривожлантира олмадилар. XIV асрда тўқувчи - италянлар ёрдамида Францияда келтириладиган ипак маҳсулотлар пайдо бўла бошлади.

XVI асрда ипак матолари ишлаб чиқариш бўйича Тур шахри биринчилардан эди. 1494 йилда давлатнинг муҳрисиз ипак матоларини ташқарига чиқариш қатъиян манн

қилинган эди. Шу қарор билан бирга шу матодан тикилган кийим-кечаклар кийиш ҳам ман этилди. 1540 йилда Францияда ипакчилик подшо манифактураси деб эълон қилинди ва кейинчалик шу ерга ипак маҳсулоти ёки ярим фабрикат маҳсулотларини олиб келиш мумкин эди. Бу Лион шаҳрини француз ипакчилик матоларини ишлаб чиқаришнинг асосий шаҳарларидан бири бўлиб қолишига саваб бўлди.

1850-1860 йилларда ипакчилик қуртлари касаллана бошлади Ва шу вақт ичида ишлаб чиқариш 7 варавар пасайиб кетди.

Англияда ипак матолари 1251 йилдан истеъмолга кира бошлади. Генрих-III қизининг тўйида минглаб рицарлар ипакдан тикилган кийимда келишган. Англияда биринчи бор ипакчиликка уриниш омадсиз келди. 1701 йилда Англияда узи ишлаб чиқарувчи одамларнинг химояси тўғрисида қарор қабул қилинди, бу қарор ипакчилик маҳсулотларини импорт қилиш ман қилинганлиги тўғрисидадир.

Америкада биринчи ипакчиликнинг кашф қилиниши XVI асрда рўй берди. 1531 йилда Кортес Мексикага ипак қурти уругини олиб келган. Биринчи ипакчилик фабрикаси Америкада 1810 йилда ака-ука Хонклар томонидан Менсфильдеда асос солинди.

Узоқ йиллар Марказий Осиёда ипак ишлаб чиқариш Хитойдан 2000 йил аввал келтирилган деб ҳисобланган. Бунга иккита тахмин бор. Биринчиси, Хитой қироличаси Хатан шаҳзодасига (Хатан - Хитой Фарбидаги шаҳар) турмушга чиқганда яширин ҳолда пилла қуртини олиб келиб шу ерда ипакчиликни ривожлантирган. Сўнгра бу соҳа Марказий Осиё ва Эронда ривожланган дейилади.

Иккинчи тахминда ипакчилик Марказий Осиёга Хитой ипак ишлаб чиқариш сирларини яшириб юрган Эрондан ривожланган дейилади.

Лекин Марказий Осиё, жумладан, Ўзбекистон жанубида ўтказилган кўп йиллик археологик тадқиқотлар бизнинг эрамиздан аввал П-мингинчи йиллар бу минтақада юқори маданиятли дехқон қабилалари яшаганликлари аниқланди. Уларнинг хўжалик фаолиятларининг юқори моддий ва маънавий маданиятлилиги натижасида кўп соҳаларда ишлаб чиқаришлар ташкил этилган. Жумладан, ҳайвонлар терисига ишлов бериш, пахта, жун, ипакдан газлама ишлаб чиқариш ва бошқа соҳаларда хунармандчиликлар бўлган.

Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институтининг олимлари, академик М. А. Ҳожинова, профессор М. М. Муҳамедов ва бошқаларнинг кўп йиллик тадқиқотлари ва Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академиясининг археология институти тадқиқотчиларининг ўрганишлари натижасида Марказий Осиёда ипакчилик ва шойи тўқиши жуда қадимги замондан, 4000 йил аввал мустақил тараққий этганлиги илк бор исбот этилди.

Академик М. А. Ҳожинованинг хулосаларига кўра, Ўзбекистон археологлари томонидан 1969-75 йилларда Сурхондарё вилоятининг Сополлитепа қишлоғида ўтказилган қазилмалар натижасида топилган мато намуналари табиий ипакдан эрамиздан аввалги 2000 йилларнинг бошида тўқилган экан.

1988 йилда Наманган вилояти Поп тумани Мунҷоқтепа қишлоғидаги археологик қазилмаларда топилган мато парчасининг ранги жигарранг, яшил, тўқ қизил эканлиги электрон микроскоп, ренгенография ва бошқа усуслар билан аниқланди. Бу матонинг танда қа арқоқ иплари табиий илакдан бўлиб, полотно урилишида тўқилган. Кадим замондан Марказий Осиё давлатлари ва улар атрофидаги Афғонистон, Эрон, Ироқ, Сурия ва Покистонда ранг - варанг нафис ва кўримли аёллар кийимлари учун атлас, хонатлас, нафис енгил шойи газламалар, оғир бекасам ва адреслар ишлаб чиқарилган.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
TEXNOLOGIK TA'LIM KAFEDRASI**

Fan va texnika tarixi

Fanidan

5 112100-Texnologik ta'lism yo'nalishi uchun

**AMALIY ISHLARI BAJARISH UCHUN
USLUBIY KO'RSATMA**

Katta o'qituvchi:

SH.S.Xudoyqulov



Namangan 2021

Mavzu № 1. Fan va texnika tarixi tushunchasi.

1. «Fan va texnika tarixi» kursi predmeti maqsad va vazifalari.
2. «Fan» tushunchasi.
3. Fanlarni tuzilishi va klassifikatsiyasi.
4. Jamiyat taraqqiyotida fanning vazifasi.

Adabiyot:

1. Karimov I.A. «Fanning vazifasi – Vatanni gullab yashnashiga xizmat qilish» Toshkent 1994 y.
2. Karimov I.A. «Fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilishi kerak» Toshkent 1994 y.
3. Bernal D. «Nauka v istorii obshchestva» M. 1993 y.
4. Uzbekiston Respublikasi fanlar akademiyasining 50 yilligi Toshkent 2001 y.
5. Katyukova «Istoriya nauki» Toshkent Universitet 2002 y..

Hozirgi zamon ilm fani va uning tarixini tadbiq etish xar bir tarixchi uchun bilish shart bo`lgan ijtimoiy extiyojlaridan biridir. Tabiat, inson, jamiyat orasidagi munosabatlarni uyg`unlashtiruvchi fanlarni o`rganish «Fan va texnika tarixi» kursini asosiy maqsadidir. Jamiyatni rivojlantiruvchi taraqqiyot bu – fandir.

Xar bir fanning vujudga kelishi nazariyasi, shakllanishi va rivojlanish tarixi mavjud. «Fan va texnika tarixi» kursini o`qitishdan maqsad fanlarni funktsiyasi va taraqqiyoti qonuniyatlarini borliqning barcha ko`rinishlari bo`lgan tabiat, jamiyat, inson o`rtasidagi o`zaro munosabatlarini uyg`unlashtiruvchi, ularning rivojlanishga ta`sir etuvchi ilmiy bilimlar majmui fan-tarixini o`rganishdir.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov: «Umuman men fanni ilgor taraqqiyot, progress degan so`zlar bilan yonma-yon qabul kilaman. Fan jamiyat taraqqiyotini olga siljituvchi kuch, vosita bulmogi lozim». Ushbu kursning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Jamiyat, davlat taraqqiyotini yo`nalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini belgilash va ilmiy bashorat qilish;
- Ilmiy fikrlar tarixini, faninng tarixiy bosqichlarini o`rganish;
- Ilmiy texnika inqilobi va uning jamiyat taraqqiyotiga qo`shgan xissasi;
- Ijtimoiy gumanitar va tabiiy fanlarni vujudga kelishi, dinamikasi nazariy qonunlarini jahon tsivilizatsiyasidagi o`rnini tadbiq etish.

Mavzu № 2. Qadimgi Misr va Mesopotamiyada fan

1. Ilmiy dunyoqarashning shakllanishi.
2. Aniq fanlarning rivojlanishi.
3. Tibbiyat.
4. Texnika taraqqiyoti

Adabiyot:

1. Karimov I.A. «Fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilishi kerak». Uzbekiston 1994 yil.
2. Avdiev G. «Qadimgi SHarq tarixi». T. 1972 yil.
3. Abdunabiev A. «Vklad v mirovuyu tsivilizatsiyu». T. 1998 yil.
4. Kotukova V.T. «Istoriya nauki». T. «Universitet» - 2002 yil.

Ma`lumki, inson o`z qiziqishi va ehtiyojlarini qondirish maqsadida, qadim zamonlardan boshlab, dunyoni bilishga harakat qilgan.

Jamiyat taraqqiyoti yuksalib borishi bilan kishilarning bilim doirasi kengayib, tafakkuri rivojlanib borgan. Boshqacha aytganda bilimlar tizimi, insoniyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi mexanizmiga aylanib boradi.

Eng qadimgi odam «homa hobiens» tafakkuri, xuddi o`z miya qobig`i kabitor edi. Uning tafakkurini tabiatdagi unga g`ayritabiyy tuyulgan xodisalar kengaytiradi. U bu xodisalarni qandaydir g`ayri tabiiy kuchlar boshqarmoqda deb hisoblaydi. U bundan qo`rqan, jazava tushgan, quvongan va uning mohiyatiga etishga harakat qilgan. Bunda unga qiziqish yordam bergan. «Neontrop» o`z manzilini yaxshi bilgan, qo`snilalarini tanigan. Qumga, po`stloqqa belgi qo`ygan. Bir-biriga chizib ko`rsatgan bu esa geografik bilimlarini kurtagi ochila boshladи.

Mavzu № 3. Qadimgi Xitoy va Hindistonda fan

1. Ilmiy dunyoqarashning shakllanishi.
2. Aniq fanlarning rivojlanishi.
3. Tibbiyat.
4. Texnika taraqqiyoti
5. Falsafa.

Adabiyot:

1. Karimov I.A. «Fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilishi kerak». Uzbekiston 1994 yil.
2. Avdiev G. «Qadimgi SHarq tarixi». T. 1972 yil.
3. Abdunabiev A. «Vklad v mirovuyu tsivilizatsiyu». T. 1998 yil.
4. Kotukova V.T. «Istoriya nauki». T. «Universitet» - 2002 yil.

Xitoyda ieroglif mil.av. 2000 yillikda kashf etilgan. Ieroglif alifbo bo`lmagan, to`xtovsiz ko`payib borgan. SHan davrida 2000 ta bo`lsa, Xan davrida 18000 dan ortik ieroglifli maxsus spravochnik tuzilgan.

Eramizning I asrida TSoy Lun qog`ozni kashf etgan. Bu yog`och va eski to`rdan yaratilgan. Tekstlar o`ngdan chapga qarab, ustunlar tariqasida yuqoridan pastga qarab yozilgan.

SHan In davrida yulduzli osmon tekshirib turilgan va kalendar' tartibga keltirilgan.

CHjyan' Ro zamonida (er.av. IV asr) kalendar' sistemasi aniqlangan va takomillashtirilgan. Yil davomiyligi qadimgi zamon uchun nihoyat darajada aniqlik bilan hisoblab chiqarilgan (365, 250) va kalendar' yilini astronomiya yili bilan barobarlashishi uchun 19 yillik tsiklga ettita kabisa belgilangan.

Xan davrida yulduz osmonning kartasi (qutb yulduzli atrofida 28 ta turkum) ishlangan va quyosh dog`lari tekshirilgan va xokazo.

CHjan' Xen (er.av 78-139 y) eng qadimgi seysmografni yaratgan. Farmakologiya, agronomiya rivojlangan.

Mavzu № 4. Antik davrda ilmiy bilimlarining taraqqiyoti

1. Ilmiy dunyoqarashning shakllanishi.
2. Aniq fanlarning rivojlanishi.
3. Tibbiyat.
4. Texnika taraqqiyoti
5. Falsafa.

Adabiyot:

1. Karimov I.A. «Fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilishi kerak». Uzbekiston 1994 yil.
2. Avdiev G. «Qadimgi SHarq tarixi». T. 1972 yil.
3. Abdunabiev A. «Vklad v mirovyyu tsivilizatsiyu». T. 1998 yil.
4. Kotukova V.T. «Istoriya nauki». T. «Universitet» - 2002 yil.

Olam va odamni bilish uchun harakat qadimgi YUnionistonda mil.av. VI-VII asrlarda ikki oqimni vujudga kelishida va ular o`rtasida kurashni boshlanishiga olib keldi.

Fizik va matematik Fales butun olamning asosini suv tashkil etadi deb hisoblagan. Uning shogirdi Anaksimen birlamchi materiya deb – apeyron – butun mavjudotning ibtidosidir deb hisoblagan.

Anaksimandr olamning asosi – xavo, «efirdir». U butun mavjudotga singib keltirib chiqargan.

Ular Milet maktabi faylasuflari edi. O`zining soddadilligiga qaramay, bu falsafa katta qimmatga ega, chunki xudolarni yaratuvchilik kuchi emas, balki birlamchi materianing rivojini olamni asosi deb hisoblardi. Bular tabiatni o`rganganlar. Olamni asosi tabiat emas, balki ideyallar deb fikr bildirgan, idealistlardan biri Pifagordir. Mil.av. VI asrda Sitsiliyada yashagan. U sonlarni o`rgangan, u grek matematikasisning asoschisidir. Olam muayyan sonlar va larning munosabatlaridan iborat bo`lib ko`rinadi.

Anaksagor: U hamma jismlar eng mayda zarralarning tegishli sifatidan, xavo-eng mayda xavo zarralaridan, go`sht-eng mayda go`shtdan iborat deb hisoblaganlar.

Demokrit (er.av 370-460 y) butun koinot modda jihatidan bir xil, xajm, shakl jihatdan har xil bo`lgan zarra atomdan iborat deb fikr bildirgan.

Mavzu № 5. Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Farobi, Buxoriy, Termiziylarning fan va texnika tarixida tutgan o'rni

1. Al-Xorazmiy.
2. Ahmad Farg'oniy.
3. Farobi, Buxoriy.
4. Termiziy.

Adabiyot:

1. Karimov I.A. «Fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilishi kerak». Uzbekiston 1994 yil.
2. Avdiev G. «Qadimgi SHarq tarixi». T. 1972 yil.
3. Abdunabiev A. «Vklad v mirovyyu tsivilizatsiyu». T. 1998 yil.
4. Kotukova V.T. «Istoriya nauki». T. «Universitet» - 2002 yil.

XV asrda Movarunnahrning poytaxti Samarqandda xam, Xurosonning Markazi Xirotda ham Temur ma`naviy an`analari davom ettirilib, olimlaru-fuzalolar, shoiru-bastakorlar, me`moru binokorlarning katta guruhi to`plangan edi. Samarqandda tug`ilib, yoshligidanoq mashhur olim sifatida tanilgan Ulug`bekning roli va hissasi nihoyatda buyukdir. Movarounnahrning va Xurosonning boy va serqirra madaniyati rivojlanishida Ulug`bekning hissasi beqiyosdir. Ulug`bek o`tmishlari Ahmad Farg'oniy, Farobi, Muso Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino asarlarini o`qib o`rgandi. Movarounnaxrning shaharlari xususan Samarqand, Buxorolarning madaniy, ilmu-ma`rifat dargoxiga aylantirishga harakat qilgan.

Mavzu № 6. Alisher Navoiyning fan va texnika tarixida tutgan o'rni

1. A. Navoiyning o'zbek tili taraqqiyotida tutgan o'rni.
2. A. Navoiy va tarix fani.
3. A. Navoiyning fanlar taraqqiyotida tungan o'rni.

Adabiyot:

1. Karimov I.A. «Fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilishi kerak». Uzbekiston 1994 yil.
2. Avdiev G. «Qadimgi SHarq tarixi». T. 1972 yil.
3. Abdunabiev A. «Vklad v mirovuyu tsivilizatsiyu». T. 1998 yil.
4. Kotukova V.T. «Istoriya nauki». T. «Universitet» - 2002 yil.

Temuriylar sulolasidan Xusayn Bayqaro Hirotni go`zal binolar, masjid, madrasalar bilan obod etdi. She`riyat sultoni Alisher Navoiy bilan birga Hirotni shoiru fozillar bog`iga aylantirildi. Shu davrda tarixchi Xondamir,buyuk-mo`yqalam sohibi Kamollidin Behzod ijod qildilar. Bu davrda Hirom minatyura san`ati ustalari maktabi vujudga keldi. Sanoqsiz qo`lyozmalar ist'dodli hattotlar tomonidan ko`chirildi va zarharlar bilan bezatildi. Sharqshunos olim A. Yakubovskiyning yozishicha A. Navoyining juda katta, nodir qo`lyozmalarga boy shaxsiy kutubxonasi bo`lgan Bu kutubxonadan tarixchi Xondamir,musavvir Behzod va boshqa olimu, fozillar foydalanganlar.

Mavzu № 7. Yangi davrda ilm-fan taraqqiyoti

1. Uyg`onish davrini jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy alokalariga ta`siri.
2. Gumanizm.
3. Ilmiy bilimlarning rivojlanishi.
4. Buyuk geografik kashfiyotlari.

Adabiyot:

1. Karimov I.A. «Fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilishi kerak». Uzbekiston 1994 yil.
2. Avdiev G. «Qadimgi SHarq tarixi». T. 1972 yil.
3. Abdunabiev A. «Vklad v mirovuyu tsivilizatsiyu». T. 1998 yil.
4. Kotukova V.T. «Istoriya nauki». T. «Universitet» - 2002 yil.

Uyg`onish davri Garbiy va Markaziy Evropa mamlakatlarining madaniyat tarixida urta asr madaniyatidan, yangi davr madaniyatiga o`tish davri (sifati kirgan) xisoblanib, XIV-XVI asrlarni o`z ichiga oladi.

«Uyg`onish davri» termini XVI asrda italiyan gumanistlari, xususan rassom va tarixchi J.Vazeriy (1511-74) asrlarda uchraydi. «Uyg`onish» termini nemis tilida «Reformatsiya», frantsuz tilida «Reneceane», italian tilida «Rinascimento» (yoki «chenkvechento») tarzida XVIII asrdan boshlab ishlataladi.

Bu yuksalishi Garbiy Evropa feodalizmni inqirozga uchrashida va yangi kapitalistik jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy kurtaklarini vujudga kelishi bilan xarakterlanadi.

Qadimgi YUnion-Rim madaniyati buyuk merosi, arablarning natijasiz, tasodifiy kashfiyotlari shu davrida o`z mevasini beradi. Inson va tabiat o`rganish va ular o`rtasidagi munosobatlarini tartibga solish g`oyalari, fanda yangi yo`nalishlarni, ilmiy kashfiyotlarni kashf etishga olib keldi. Italiya, Frantsiya, Germaniya adabiyoti vujudga keldi.

Mavzu № 8. XVII asrning ikkinchi yarmi XVIII asrning boshlarida ilmiy inqiloblar

1. Aniq fanlar.
2. Hayot to`g`risidagi ta`limotdagi yangiliklar.
3. Me`morchilik va tasviriy san`at
4. Sanoat muvaffaqiyatlari. Texnikaning rivojlanishi.

Adabiyot:

1. Karimov I.A. «Fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilishi kerak». Uzbekiston 1994 yil.
2. Avdiev G. «Qadimgi SHarq tarixi». T. 1972 yil.
3. Abdunabiev A. «Vklad v mirovuyu tsivilizatsiyu». T. 1998 yil.
4. Kotyukova V.T. «Istoriya nauki». T. «Universitet» - 2002 yil.

Bizga tarixdan ma`lumki, yangi tarix davrining birinchi bosqichi 1640-1870 yillarni o`z ichiga oladi. Bu yillar davomida fan-texnika olamida bir qancha yutuqlarga erishildi. O`rta asrlarda buyuk geografik kashfiyotlar natijasida sanoat inqilobining boshlanishi fan-texnikaning jadal rivojlanishiga turtki bo`ldi. Bu davr fan va texnika tarixini o`rganar ekanmiz, tarixchi sifatida bu davrda revolyutsiyalar ta`siri fan va adabiyot sohasida anchalik sezilarli e`tirof etishimiz darkor. SHu sababdan barcha fikr va asarlarga tahliliy ko`z bilan qarashimiz kerak.

Matematika. XIII va XVI asrlarda tegirmon va soat singari mexanizmlarni takomillashtirish vaqtida matematika va mexanikaning ko`pgina vazifalari hal etildi. XVII asrda soatda mayatnikdan foydalanila boshlandi. Mashxur ingliz olimi I.N'yuton va nemis olimi G.Leybnits XIII-XVII asrlarda hozirgi zamon oliy matematikasiga asos soldilar. N'yuton kashf qilgan va ta`riflab bergen mexanika va optika qonunlari fan va texnikaning ko`pgina vazifalarini hal etish uchun asos yaratdi. N'yutonning eng asosiy xizmatlaridan biri butun dunyo tortilishi qonuni kashf qilganligidir. XVII asrda matematikaning ko`pgina amaliy

va nazariy masalalari ishlab chiqildi. Atoqli rus olimi, Qozon universtitetining professori N.I.Lobachevskiy geometriyaning «noevklid» sistemasini tezish imkonini borligini isbotladi va birinchi bor uning imkonni bo`lgan variantlaridan birini yaratdi.

Mavzu № 9. Markaziy Osiyoda XV va XIX asrning birinchi yarmida ilm-fan

1. Temuriylar davrida ilm fan.
2. Shayboniylar davrida ilm-fan
3. Xonliklar davrida ilm-fan.

Adabiyot:

1. Karimov I.A. «Fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilishi kerak». Uzbekiston 1994 yil.
2. Avdiev G. «Qadimgi SHarq tarixi». T. 1972 yil.
3. Abdunabiev A. «Vklad v mirovuyu tsivilizatsiyu». T. 1998 yil.
4. Kotukova V.T. «Istoriya nauki». T. «Universitet» - 2002 yil.

XIV-XVasrda bir kancha iste`dodli hattotlar, musavvirlar, lavvoxlar, sahhoflar etishdi. Abdurahmon, Xorazmiy, Sulton Ali Xandon, Mir Ali Kalkalam Xalvoiy, Rafiqiy va boshqalar shular jumlasidandir. XIV-XVasrlarda tasviriy san`at soxasida ulkan yutuqlarga erishildi.

Behzod, Mirak Naqqosh, qosim Ali Mahmud, Muzokib, Xojimaxmud Naqqosh va SHohmuzaffar kabi mo`yqalam sohiblari etishdi.

Zamondoshlari tomonidan Monii Soniy «Ikkinchi Moniy», keyingi davr olimlari tomonidan «SHarq Rafaeli» deb nomlangan Kamoliddin Bexzod XV asr tasviriy san`atining ulug` namoyondasi XIV-XV asrlarda O`rta Osiyo xalqlarining musiqa san`ati taraqqiyotida ham yangiliklar sodir bo`ldi. SHu bilan birga O`rta Osiyo xalklari adabiyoti taraqqiyotida ham yangi va sermaxsul davri bo`ldi. Bu davrda adabiyot badiiy uslub jihatidan takomillashadi.

Mavzu № 10. XIX asrda rus olimlarining Turkistondagi faoliyati

1. Rus olimlari tomonidan o'lka tarixini o'rganilishi.
2. Tabiiy fanlar taraqqiyoti.
3. Texnika taraqqiyoti.

Adabiyot:

1. Karimov I.A. «Fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilishi kerak». Uzbekiston 1994 yil.
2. Avdiev G. «Qadimgi SHarq tarixi». T. 1972 yil.
3. Abdunabiev A. «Vklad v mirovuyu tsivilizatsiyu». T. 1998 yil.
4. Kotukova V.T. «Istoriya nauki». T. «Universitet» - 2002 yil.

Chor xukumati Turkishon o`lkasi xalq ommasiga milliy jixatdan o`zini anglash uchun imkon bermas edi, chunki ular orasida tarixiy bilimlarni keng tashviqot qilish va ular etiborni qadimiy Yodgorliklar qimattiga jalb etish Chorizmning mustamlaka siyosatiga putur yetkazadi, deb hisoblar edilar. Lekin O`rta Osiyonidagi o`z mustamlaka mlki deb bilgan Chorizm beqiyos boyliklarni o`zlashtirish uchun Turkistonni ilmiy asosda o`rganish zarurligini yaxshi tushunar edi.

Qisqa vaqt ichida o`lka meterologiyasi, zoologiya, numizmatikasi etnografiya, flora, fauna dunyosiga oid kolektsiyalar to`pladi.

Shu munosabat bilan tarqoq kolektsiyalarni birlashtirish va ularni Peterburgga jonatilishi uchun saralash markazi lozim bo`lib qoladi. Buning uchun qulay markaz muzey hisoblanib o`lkada muzey tashkil etish masalasi ko`tarildi. Jumladan A. P. Fedchenko Turkiston general-gubernatoriga tayyorlangan axborotda "Turkistonni" muvoffaqiyatli rivojlantirishi uchun u bilan asosli ravishda tanishib chiqish kerak, muzey esa buning esa yaxshi vositasidir", deb yozgan edi.

Mavzu № 11-12. XX asrda ilm fan taraqqiyoti.

1. Transport. Metalluriya.
2. Ximiya texnologiya, mashinasozlik.
3. Energetika. Ichki yonuv dvigatellari.
4. Xarbiy texnika.

Adabiyot:

1. Karimov I.A. «Fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilishi kerak». Uzbekiston 1994 yil.
2. Avdiev G. «Qadimgi SHarq tarixi». T. 1972 yil.
3. Abdunabiev A. «Vklad v mirovuyu tsivilizatsiyu». T. 1998 yil.
4. Kotyukova V.T. «Istoriya nauki». T. «Universitet» - 2002 yil.

XIX asrning so`ngi choragi va XX asrning boshlarida ta`sir doiralari va mol sotiladigan bozorlarni qo`lga kiritish uchun kurashda transport juda muxim rol uynaydi.

XIX asrning 70 yillarida paravozsozlikni taraqqiy ettirishdagi boshlang`ich davri tugadi. Paravozni takomillashtirish paravoz quvvatini va tortish kuchini oshirish yo`lidan bordi. XIX asrning oxirida effekti kam bo`lgan bu mashina o`rniga dvigatellar, chunonchi, ichki yonuv dvigateli elektr dvigateli yaratishga xarakat qilina boshlandi. 1895 yildayoq Angliya va AQSH ning eng yirik shaharlarida konko o`rniga tramvay ishlataldi. 10 yil ichida temir yo`l elektr tarmoqlarining uzunligi 2260 km etdi, shundan 1139 km Germaniyada edi. 1901 yildan boshlab, Parijning shahar atrofiga boradigan temir yo`l liniyalarida elektrdan foydalanildi. XIX asrning ikkinchi yarmida paroxodlar takomillashtirila boshlandi. Kemalar qurishda po`lat keng ishlatala boshlandi. 1900 yilda misli ko`rilmagan katta

kemalar uzunligi 200 metr, suv sig`dirish xajmi 20000 tonna keladigan kemalar paydo buldi. Passajir kemalarining yurish tezligi 20 uzelga, ya`ni soatiga kariyib 40 km ga etkazildi. Temir yo`l kурilishining keng kulamda avj oldirib yuborilishi, dengiz transportining elkali yog`och kemalaridan bug` kuchi bilan yuradigan pulat kemalarga batamom utishi mashinasozlikning rivojlanishi bularning xammasi metall ishlab chikarish mikdorining kupaytirilishining va metall sifatini yaxshilanishini talab etadi.

Mavzu № 13. Mustaqillik sharoitida ilm-fan va texnika

1. O`zbekiston xukumatining fan texnika taraqqiyotiga e`tibori.
2. Fanlar akademiyasi va ta`lim muassasalari.
3. Ilmiy kashfiyotlar va fanning yangi yo`nalishlari.

Adabiyot:

1. Karimov I.A. «Fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilishi kerak». Uzbekiston 1994 yil.
2. Avdiev G. «Qadimgi SHarq tarixi». T. 1972 yil.
3. Abdunabiev A. «Vklad v mirovyyu tsivilizatsiyu». T. 1998 yil.
4. Kotyukova V.T. «Istoriya nauki». T. «Universitet» - 2002 yil.

Mustaqil O`zbekistonda fan taraqqiyotiga katta axamiyat berildi, chunki xar tomonlama yutuqqa erishilmasa, davlatning kelajagi bo`lmaydi. SHuni e`tiborga olib, Respublikada ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, tadqiqotlarning natijasini xayotning turli jabxalarida tadbiq qilish borasida katta ishlar olib borishmokda.

1992 yil O`zbekiston Respublikasi Davlat Fan va texnika komitetini tashkil etish tugrisida farmon e`lon kilindi.

1993 yil Respublika Vazirlar Maxkamasining «O`zbekiston Respublikasi Davlat ilmiy texnika siyosatining ustivor yunalishlari tugrisida» gi karori bilan Respublika Davlat ilmiy-texnika siyosatining yangi istiqbolga mo`ljallangan asosiy yo`nalishlarini belgilab bordi. Bu ustivor yo`nalishlarga Davlat fundamental tadqiqotlar dasturlari, Davlat ilmiy texnika dasturlari, tanlovi ilmiy-texnika loyihalari va innovatsiya dasturlari doirasida xal kilindi.

Mamlakatni jadal rivojlantirishi borasida dasturiy vazifalarni amalga oshirishda fanni va infrastrukturani rivojlantirish goyat muxim axamiyatga ega. Fan intelektual saloxiyatni yaratdi. Bu innovatsion kashfiyotlar, imkoniyatlari bilan iqtisodiyotimizga xizmat qilmoqda.

Respublikamizning ilmiy tadqiqot majmui akademiya, oliy uquv yurtlari va tarmoq yo`nalishidagi 362 muassasani, shu jumladan 101 ilmiy tadqiqot institutini, oliy o`quv yurtlaridagi 55 ilmiy tadqiqot bo`linmalarini, 65 loyixa konstruktoriya tashkilotini, 32 ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi va tajriba korxonalarini, 30 ta axborot xisoblash markazini o`z ichiga oladi.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi mavzulardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. “Zamonaviy fanning strukturasi” mavzuida referat tayyorlash.
2. Fan klassifikatsiyasini tuzish.
3. “Qadimgi SHarqda ilmiy tafakkurning rivojlanishi” mavzuida esse yozish.
4. “Qadimgi Yunonistonda fan” mavzuida internet yordamida ma’lumot tayyorlash.
5. “Qadimgi Rimda fan” mavzuida internet materiallari asosida ma’lumot tayyorlash.
6. “Cuqrot buyuk mutafakkir” mavzuida tarixiy badia tayyorlash.
7. “Platon ulug’ mutafakkir alloma” mavzuida maqola yozish.
8. “Aristotel’ antik dunyoning universal aql egasi” mavzuida ilmiy ma’ruza tayyorlash.
9. Platon matabiga kiruvchi allomalarining ro’yxatini tuzish.
10. “Qadimgi Xitoyda fan” mavzuida ilmiy referat tayyorlash.
11. “Qadimgi Xindistonda fanning rivojlanishi” mavzuida referat yozish.
12. “Islom Uyg’onish davrida fan” davra suhbatiga tayyorgarlik.
13. “Musulmon Uyg’onish davrida o’ziga xos xususiyatlari” mavzuida ma’ruza tayyorlash.
14. “Baytul -Hikma” allomalar haqida biografik ma’lumotlar tuzish.
15. Ahmad al – Farg’oniy haqida ma’lumotnomasi tayyorlash.
16. Abu Nasr Farobi haqida biografik maqola yozish.
17. Abu Rayxon Beruniy haqida referat yozish.
18. “Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000 yilligi” mavzuida O’zbekiston tarixi muzeyidan ekspozitsiyalarni o’rganish.
19. “Abu Ali ibn Sino buyuk qomusiy alloma” mavzuida ilmiy maqola tayyorlash.
20. “Imom al – Buxoriy buyuk muhaddis alloma mavzuida referat tayyorlash.
21. “Burhoniddin Marg’inoniy va O’rta Osiyo fiqh maktabi” degan mavzuida ilmiy ma’ruza tayyorlash.
22. “O’rta Osiyoning buyuk mutasavvuflar va ularning ilmiy merosi” mavzuida ma’lumotnomasi tayyorlash.

- 23.“Evropada dastlabki universitetlarga asos solinishi” mavzuida davra suhbatiga tayyorgarlik.
- 24.“Buyuk geografik kashfiyotlar va uning fanga ta’siri” mavzuida referat yozish.
- 25.“N. Kopernik ulug’ olim” mavzuida internet saytlari yordamida ilmiy ma’ruza tayyorlash.
- 26.“ T. Kampanella haqidagi adabiyotlar ro’yxatini tuzish.”
- 27.Foma Akvinskiy haqida biografik ma’lumotlarni to’plash.
- 28.Evropada inkvizitsiya ta’qibiga uchragan olimlar haqida ma’lumot to’plash.
- 29.Temur davrida yashagan allomalarning ro’yxatini tuzish. (Temuriylar davlati tarixini o’rganish muzeyi ekspozitsiyalari asosida).
- 30.Temur va Temuriylar davrida yashagan tarixchi olimlar haqida ma’lumotnomalar tayyorlash.
- 31.“Mirzo Ulug’bek va uning ilmiy maktabi” mavzusida ilmiy referat tayyorlash.
- 32.“A. Navoiy ulug’ mutafakkir” mavzuida esse yozish.
- 33.Z. Boburning “Boburnoma” asari haqida jajji tadqiqot tayyorlash.
- 34.“XVII asr oxiri va XVIII asrda Yevropada fanning rivoji” mavzuida referat tayyorlash.
- 35.“XVII – XIX asrda O’rta Osiyoda fan” mavzuida referat.
- 36.“XX asr ilmiy texnika asri” mavzuida referat.
- 37.“XX asrda O’zbekistonda fan” mavzuida referat.
- 38.“Mustaqil O’zbekistonda fan” mavzuida referat.
- 39.“O’zMU ma’rifat o’chog’i” mavzuida esse yozish.
- 40.O’zbekistonda Ma’mun akademiyasining 1000 yiliga bag’ishlab o’tkazilgan tadbirlar haqida ma’lumot to’plash.

ILOVALAR

Ushbu o'quv-uslubiy majmua fan va texnika tarixi kursinng predmeti, maksad va vazifalari, uning dolzarbliji, ilmiy va amaliy ahamiyatini o'rganadi, hamda talabalarga «Fan va texnika» tushunchasi, uning rivojlanish qonuniyatlarini va tamoyillari, fanning tarkibi va tuzilishi, uni tashkil qilish va boshqarish, fanning tasnifi. Fanning ijtimoiy roli va uning rivojlanish istiqbollari xaqida tushuncha beradi Mustaqil O'zbekistonda fan taraqqiyoti va rivojlanishi haqida ma'lumotlar beradi. «Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi»da ko'rsatib o'tilgan talabavoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ulardan mustaqil fikrni qaror toptirish, fan tarixining inson va jamiyat tarixi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatib berish bilan belgilanadi.

SHuningdek, «Fan va texnika tarixi» fani haqidagi bilimlarni qaror topshirish mavjud ilmiy abdiyotlar va zamonaviy nazariyalar hamda olib borilayotgan tadqiqot ishlarini o'rganish, fan bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalar, kadrlar buyurtmachilarining fikr, talab va takliflari kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Fanni o'qitishdan maqsad talabalarga kishlik tarixida ilmiy bilimlarning vujudga kelishi masalasi, qadimgi ilmiy maktablar va ularda olimlarni ijod qilishi, ilmiy duneqarash va metodlar o'rgatish va tahlil qilishdan iborat. Fanning vazifasi talabalarga Fan tarixini o'qitish orqasidan ularga ilmga muhabbat o'yg'otishdir. Fan tarixining insoniyat tarixini ajralmas qismi ekanligi, o'z davrida yashab o'tgan allomalarining o'sha davr ijtimoiy, siyosiy va mi'naviy hayotida tutgan o'rnnini ko'rsatish hamda Fan texnika yutuqlarining ahamiyatini ta'kidlash va ularni oqibatlarini taqlil etishdan iborat.

«Fan tarixi» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- Fan tarixining metodi, asosiy bosqichlari, ilmiy maktablar xaqida ma'lumot olish;
- Qadimgi va o'rta asrlarda Akademiyalar, va Universitetlarning tashkil topishi xakida tasavvurga ega bo'lish.

-SHarqda va Yevropada Renessans davrida aniq fanlarning rivojlanishi va ilmiy qashfiyotlarni yuzaga kelish jarayonlarni ***bilishi kerak***.

-XX – asrda nohaq siyosat orqasidan qatag'on qilingan olimlar hayotini atroficha o'rganish.

Tarixiy jamiyat rivojlanishining tarixiylik asosida, ilmiylik va mantiqiylik asosida o'rganish, Vatanimiz tarixini jahon tarixi bilan uyg'unligini ta'minlash, mustaqil va zamonaviy fikrlash, tarixiy voqelikni tahlil etib xolisona baho berish.

Fan tarixi kursi asosiy ixtisosliq fanlaridan bo'lib, 3-semestrda o'qitiladi. Fan tarixi, Tarix, Arxeologiya, Matematika, Fizika, Astronomiya, Tuproqshunoslik, Dintarixi, Falsafa, Antropologiya, Biologiya, Paleontoplogiya, Geologiya, Geografiya, Adabiyot, Mantiq, Meditsina, Arxitektura va harbiy bilimlar bilan uzviy bog'lik. U har bir fanining rivojlanish qonuniyatlarini tarixiy nuqtai-nazardan tahlil etadi.

Ilmiy tadqiqot muassasalarida, laboratoriyalarda kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi; umumiylar maxsus, kasbiy ta'lim (shuningdek, akademiy litseylar, kasb-hunar kollejlari, o'rta umum ta'lim maktablarida) darslari beruvchi.

SHuning uchun o'quv yurtlarida tarix va jamiyatshunoslik fanlari o'qituvchilari sifatida o'qituvchi va uslubiyat ishlari bo'yicha mas'ul vazifalarni bajarishi; muzey lektori va ekskursavodlar sifatida lektorlik, ekskursiya ishlarida; vazirliliklarning o'quv ilmiy bilimlari,

tarmoq institutlari, oliy ta'lim muassasalarini, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limida ishlash kabi kasbiy faoliyat turlarini bajarishi va tarix fanlaridan dars berishi mumkin

Talabalarning O'zbekiston tarixi fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlardan hamda o'quv xaritalaridan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda ularga mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ro'za, seminar shaklida olib boriladi. SHuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ish sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fan zamonaviy pedagogik texnologiyaning qo'yidagi:

- Aqliy xujum;
- Klasterlarga bilsh;
- "Bumerang" texnologiyasi;
- "Veer" texnologiyasi
- Muammoli o'quv texnologiyasi;
- O'yinli o'qish texnologiyasi;
- Informatsion va telekommunikatsion ta'lim texnologiyasi;
- Inovatsion ta'lim texnologiyasi singari metodlari orqali qo'llaniladi. Xuddi shu kabi slaydlar, multimedia namoyishlarini qo'llash ham nazarda tutiladi.

Mamlakatimizda olib borilaetgan keng ko'lamli isloxoxtlar ko'p jixatdan uzluksiz iqtisodiy ta'lim tizimini shaklantirishni taqazo etadi. Yangicha fikrlaydigan, bozor sharoitlarida muvaffaqiyatli xo'jalik yurita oladigan malakali, chuqur bilimli mutaxassislarini, ayniqsa turizm soxasida faoliyat yurituvchi kadrlarni tayerlash davr talabi bo'lib qoldi.

«Fan va texnika tarixi» fani bo'yicha mashg'ulotlar qo'yidagicha taqsimlangan:
umumiy soat 90, auditoriya soati 42, shu jumladan 16 soat ma'ruza, 26 soat seminar va 48 soat mustakil ta'lim mashg'ulotlaridan iboratdir.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq yuksak malakali va yangicha dunyoqarashga ega bo'lgan milliy kadrlarni tayyorlash, hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalar qatorida ta'lim- tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish dolzarb masala bo'lib qoldi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonida hamda ta'lim tizimini o'rganish asosida mamlakatimiz iqtisodiyotida erishilgan yutuqlarni atroflicha tahlil etish, mavjud muammo va kamchiliklarni batamom bartaraf etish hamda iqtisodiyotni rivojlantirish usullarini ilg'or horijiy tajribalardan samarali foydalanish orqali ta'lim tizimini yanada takomillashtirish masalalari ilgari suriladi. Bunda asosiy e'tibor jahon integratsiyalashuvi jarayonini jadal sur'atlarda rivojlantirish, buning uchun mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyatini erkinlashtirish borasida kechiktirib bo'lmaydigan chora- tadbirlarni amalga oshirishga qaratiladi. Hozirgi kunda innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborotlar texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan – kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan

bilimlarini o'zlarini qidirib topishlari, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlarini chiqarishlariga o'rgatadi.

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lism. Bu ta'lism o'z mohiyatiga ko'ra ta'lism jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limga loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lism oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyatini bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lism texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. SHaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lism oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limga ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z – o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyatni kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limga tashkil etish. Demokratilik, tenglik, ta'lism beruvchi va ta'lism oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarini baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lism. Ta'lism mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlanishini, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyatni ta'minlanadi.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoviy usul, keys-stadi, pinbord, paradokslar va loyihamalar usullari, amaliy ishlash usuli.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot xamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari o'qitishning an'anaviy shakllari (garslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ ikki yoqlama aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Ikki yoqlama aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blitz-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'ulotlari bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashhulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

1 mavzu	«Fan tarixi» kursiga kirish.
----------------	-------------------------------------

1.1. Kirish mavzu bo'yicha reja topshiriq va o'quv-uslubiy xujjatlar

<i>Ma'ruza rejasi:</i>				
1. «Fan tarixi» kursi predmeti maqsad va vazifalari. 2. «Fan» tushunchasi. 5. Fanlarni tuzilishi va klassifikatsiyasi. 6. Jamiyat taraqqiyotida fanning vazifasi.				
<i>Mashg'ulotning maqsadi:</i>	O'quv kursi haqida umumiy tasavvurni shakllantirish, fan predmeti, metodlari va boshqa fanlar bilan aloqalari hamda O'zbekistonda fan va texnika tarixi fani taraqqiyot bosqichlari haqida tushuncha hosil qilish.			
<i>Talabaning o'quv faoliyati natijalari:</i>				
